

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**

**«TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI»
kafedrasи**

**“Texnik tizimlarni boshqarish”
fanidan laboratoriya ishlarini
bajarish bo'yicha**

**5310600 – «Yer usti transport tizimlari va ularning
ekspluatatsiyasi», 5310600-Transport vositalari
muhandisligi yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat
talabalari uchun**

Qarshi – 2021 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

**«TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI»
kafedrasi**

«TEXNIK TIZIMLARNI BOSHQARISH»

fanidan laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

Qarshi – 2021 yil

“Texnik tizimlarni boshqarish” fanidan amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish uchun tuzilgan bo‘lib, uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan. 5310600 – “Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi” (5310600-Transport vositalari muhandisligi) yo‘nalishi bo‘yicha namunaviy dastur asosida yozilgan.

Tuzuvchi:

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrasini dotsentii **O’.N. Abduraxmonov**

Taqrizchilar:

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrasini dotsentii **O’.R. Boynazarov**

“Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash va servis” kafedrasini dotsenti **T.X. Razzoqov**

Fanning ishchi o‘quv dasturi «Transport vositalari muhandisligi» kafedrasini yig‘ilishida (bayon №____ «____» ____ 2021 y.), Muhandislik texnikasi fakulteti uslubiy komissiyasida (bayon №____, «____» ____ 2021 y.) va institut uslubiy kengashida (bayon №____, «____» ____ 2021 y.) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

**O‘quv- uslubiy boshqarma
boshligi**

Sh.R.Turdiyev

**Fakultet Uslubiy Komissiyasi
raisi**

E.U.Eshdavlatov

Kafedra mudiri

O’.N.Abduraxmonov

KIRISH

Mamalakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va xalqimizning turmush darajasini ko‘tarilishi uchun yangi sanoat korxonalarini ishga tushirish, mavjudlarini qayta ko‘rish va kengaytirish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan moslash, oliv malakali kadrlar bilan ta’minlash lozim. Shuning uchun hukumatimiz tomonidan ichki va chet el sarmoyalaridan foydalanilgan, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan holda jahon andozalariga mos keluvchi bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulot chiqaradigan turli toifadagi korxonalar qurilishiga katta e’tibor berilmokda.

O‘z navbatida mamlakatimizda ishlab chiqarish quvvatlarini oshishi, bir-biridan murakkab, yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashтирilgan texnika vositalarini ko‘payishi ularni doimo ishchi hollarda turishini ta’minlashni taqozo etadi.

Mashina va jihozlardan foydalanish jarayonida ularning detallari va yig‘ma birliklari turli sabablarga ko‘ra ishga yaroqsiz yoki ish sifatiga salbiy ta’sir etadigan holatga kelishi mumkin. Jumladan, nisbiy harakatdagi tutash yuzalar ishqalanish natijasida yeyilishi muhit ta’sirida yemirilishi, meyordan ortiq yuk ostida yoki o‘zgaruvchan kuch ta’siridan toliqishi oqibatida sinishi, ortiqcha yuk va harakat ta’sirida plastik deformatsiyalanishi, hamda yeyilishi sababli belgilangan texnologik va konstruktiv tirqishlar meyordan ortib yoki kamayib ish sifatiga putr yetkazishi mumkin.

Har qanday texnika vositalarining ish bajarish qobiliyatini saqlab turish, ish resursini uzaytirish uchun ta’mirlash ishlarini bajarish kerak.

Buning uchun barcha turdagи texnika vositalariga muntazam tarzda texnik xizmat ko‘rsatib va ta’mirlash ishlarini amalga oshirib turish lozim. Mashina va jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlari bevosita mazkur korxonaning o‘zida ta’mirlash bo‘limi, sexi tarzida yoki alohida faoliyat ko‘rsatuvchi ta’mirlash zavodi, texnik xizmat ko‘rsatish shahobchasi kabi maxsus korxona tarzida tashkil etilishi mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalari ham zamon talablariga javob berishi, progressiv texnika va texnologiyalari bilan jihozlanishi, ta'mirlash ishlarini optimal rejimlarda amalga oshirishi va tashkil etishi lozim.

Mamlakatimiz korxonalari, asosan, chet el texnika bilan jihozlanayotganligi, bu jihozlar va ularning ehtiyot kismlarini sotib olish o'ta qimmatga tushishi e'tiborga olinsa, bugungi kundagi imkoniyatlarimiz doirasida xal eta olishimiz mumkin bo'lgan asosiy vazifa ishlab turgan mashina va jihozlarni o'zimizning kuchimiz bilan ta'mirlab ularning ish resurslarini uzaytirish ekanligi ayon bo'ladi. Bu vazifani ijobiy hal etish uchun ta'mirlash korxonalari va texnika xizmat ko'rsatish ustaxonalarini turlari tarkibiy tuzilishi tashkiliy shakllari hamda ularning loyihalash asoslarini bilish kerak.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalari ham zamon talablariga javob berishi, progressiv texnika va texnologiyalar bilan jihozlanishi; ta'mirlash ishlarini optimal rejimlarda amalga oshirishi va tashkil etilishi lozim.

Mamlakatimiz korxonalari, asosan, chet el texnikasi bilan jihozlanayotganligi, bu jihozlar va ular ehtiyot qismlarini sotib olish o'ta qimmatga tushishi e'tiborga olinsa, bugungi kundagi imkoniyatlarimiz doirasida hal eta olishimiz mumkin bo'lgan asosiy vazifa ishlab turgan mashina va jihozlarni o'zimizning kuchimiz bilan ta'mirlab ularning ish resurslarini uzaytirish ekanligi ayon bo'ladi. Bu vazifani ijobiy hal etish uchun ta'mirlash korxonalari va texnika xizmat ko'rsatish ustaxonalarini turlari tarkibiy tuzilishi tashkiliy shakllari hamda ularning loyihalash asoslarini bilish kerak.

Ushbu uslubiy ko'rsama texnika yo'naliishlarida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun ham foydalanish mumkin.

1 - LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi: Bosh mexanik bo‘limining ishini o‘rganish.

Ishdan maqsad: Bosh mexanik bo‘limi ishini tashkil qilishni o‘rganish.

Kerakli jihozlar: yo‘riqnomalar, rejalar grafiklar.

Nazariy qism.

Talaba ushbu ishni bajarish uchun avtokorxona bosh mexanigini quyidagi vazifalarini bilish va bajarishi kerak.

Avtotransport korxonalarida bosh mexanik xizmati ishlab chiqarishni rivojlantirish, bino va inshootlarni, enfgokuchlarini, sanitар texnik va texnologik jihozlarini texnik soz holda ushlab turish bilan bog‘liq funksiyalarni bajaradi.

Bosh mexanik xizmatiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish texnika bazasini elementlarini texnik holatini nazorat etish;
- ishlab chiqarish texnika bazasini elementlarini holatini va mavjudligini hisobga olish;
- elementlarga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;
- yangi mexanikani tadbiq etish;
- nostandard jihozlarni va moslamalarni tayyorlash;
- texnologik jihozlarni o‘rnatish, ko‘chirish, sozlash;
- qurilish ishlarini olib borish.

Bosh mexanik xizmati quyidagi tarkibda tuzilgan:

- texnologik jihozlarni markazlashgan holda ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish ustaxonasi;
- nostandard jihozlar tayyorlash va yangi texnikani joriy etish ustaxonasi;
- texnik vositalarni boshqarishni ta’mirlash va ularga ximat ko‘rsatish ustaxonasi;
- bino va inshootlarni ta’mirlash qayta qurish va qurilish

brigadasi.

Bundan tashqari bosh mexanik xizmatiga endogiya kuchlari, standart-texnika jihozlari, boshqarish vositalarini, garaj jihozlarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish xodimlari ham kiradi.


Hisobot yozish.

Farg'onatrans asosiy uyushmasiga qarashli Farg'ona avtokombinatning bosh mexanigi ishini yozma taxlil qilish va boshqarish jarayonini chizish. (sxema)

Navbatchi mexanikning burchagi

1. Transport vositalarini ishga chiqishda va ishdan qaytishda texnik holatni tekshirish, texnik sog' transport vositasini o'z vaqtida ishga chiqarish.
2. Transport vositasidagi buzuqlilikni aniqlash va o'z vaqtida ta'mirlashga, texnik qarov yuborish.
3. Yo'l varaqasiga quyidagilarni tekshirish va yozish.
 - garajdan chiqayotgan va qaytayotgan avtomobilni xaqiqiy spidometri ko'rsatkichni yozish;
 - yoqilg'i bakidagi yonilg'i qoldig'ini aniq yozish.
 - yuqoridagilarni aniqligini tasdiqlab imzo qo'yish.
4. Haydovchi ishga chiqishda tranport vositasini texnik sog' deb imzo qo'yish.
5. Ishdan qaytgan avtomobilni qabul qilib olish va yo'l varaqasiga imzo qo'yish.
6. Ishga chiqqan avtomobillar haqida har kuni bosh muhandisiga hisobot berish.
7. Ta'mirlashda avtomobillarni ishga tayyorlashni nazorat qilish.
8. Yo'l sharoiti to'g'risida haydovchilarni ogohlantirish va kerak bo'lsa, yo'l varaqasiga tegishli yozuvlar yozish.

9. Har bir avtomobil uchun shaxsiy varaqqa (litsovaya kartochka) yuritish.



Hisobot yozish.

Farg'onatrans asosiy uyushmasiga qarashli Farg'ona avtokombinatning bosh mexanigi ishini yozma taxlil qilish va boshqarish jarayonini chizish. (sxema)

2 - LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi: Avtotransport korxonasida (ATK) texnik va nazorat bo'limining ishini o'rGANISH.

Ishdan maqsad: Texnik va nazorat bo'limlari ishini tashkil qilishni o'rGANISH.

Kerakli jihozlar: Texnik va nazorat bo'limini hujjati,


rejasি, grafigи ishini tashkil qilish.

Nazariy qism.

Texnik nazorat xizmati vositalarini texnik holatini ATKda nazoratini tashkil etadi. Markazlashtirilgan ishlab chiqarishga kelgan avtomobillarni agregatlarini, uzellarini texnik holati nazoratini ta'minlaydi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda bajariladigan ishlarni sifatini nazorat etadi. ATKga kelayotgan materiallarni sifatini nazorat qiladi, texnik nazorat xizmat ishini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi.

Nazorat hizmatiga rahbarlik qiladigan boshliq avtokorxona boshlig'iiga bo'ysinadi. Texnik nazorat xizmati boshlig'iini qo'l ostida mexanik nazorat ustasi, mexanik nazorat mexaniklari ishlaydi.

Texnik nazorat xizmatini prinsipiial chizmasi



Nazorat bo'yicha ish mashinalari yetarli bo'lganda ba'zan bo'limlar birlashtiriladi. Nazorat mexaniklari markazlashgan ishlab chiqarishga kelgan harakat vositalarini qabul qiladilar, kapital ta'mirlangan avtomobillarni agregatlarini sifatini nazorat qiladi.

*Avtokorxonalarda nazorat – texnik punktining navbatchi
mexanigi ishini o‘rganish.*

1. Umumiy qoidalar.

1.1. Navbatchi mexanik bevosita avtokorxonaning bosh muhandisiga bo‘ysunadi.

1.2. Yo‘lga chiqish oldidan va undan qaytish vaqtida harakat tarkibining texnik holatini nazorat qilishni amalga oshiradi.

1.3. O‘zining ish faoliyati davomida ushbu lavozim yo‘riqnomasi, nizomlar, buyruqlar, harakat xavfsizligiga oid qoida va yo‘riqnomalar va boshqa meyoriy hujjatlarga rioya qiladi.

1.4. Navbatchi mexanik lavozimiga o‘rta yoki oliv maxsus ma’lumotli shaxslar tayinlanadi.

1.5. Navbatchi mexanik bosh muhandis taqdimnomasi bo‘yicha avtokorxona rahbarning boshqaruviga binoan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

1.6. Navbatchi mexanikning farmoishi, navbatchi mexaniklar uchun majburiy hisoblanadi va faqat mexanikning o‘zi orqali yuqori rahbarlar tomonidan bekor qilinishi mumkin.

2. Vazifalari.

NTP navbatchi mexanigi kuyidagilarni bajarishga majbur:

2.1. «Yo‘l harakati qoidalari» tadbirlariga muvofiq faqat yaroqli harakat tarkibini yo‘lga chiqarishga ruhsat etib, yo‘lga chiqishda va undan qaytishda harakat tarkibining, texnik holatini va tashqi ko‘rinishi nazorat qilishni amalga oshiradi.

2.2. Yo‘ldan qaytib kelgan harakat tarkibini tekshirish

- spidometr hisoblagichi ko‘rsatmasiga ko‘ra haqiqiy vaqt nazorat mexanigining jurnalida qayd qilish (1-ilova);

- avtomobil bakidagi yonilg'i qoldig'i yo'l varaqasida qayd qilish;
- harakat tarkibining butligi;
- mavjud nosozlik: shkastlanganlikni belgilab qo'yish;
- avtomobil shikastlangan spidometr /taksometr/ bilan qaytgan taqdirda dalolatnomaga tuziladi. /2-3 ilova/ va avtomobil spidometrlari (taksometrlari) nosozligini qayd etish jurnaliga yozib qo'yiladi. (4-5 ilova).

2.3. Nosozlik aniqlanganda ta'mirlashga buyurtma rasmiyлаигтирилди, рея жадвалига мувоғик наубатдаги техник хизмат ко'рсатишга жо'натиш (6-илова) журнالига yozib quyish (7-илова).

2.4. Haydovchilarni va harakat tarkibini yo'l varaqasisiz haydovchilik guvohnomasisiz, texnik tallonsiz, davlat raqami belgisiz, ishlamaydigan va plombalanmagan spidometr bilan yo'lga qo'ymaslik.

2.5. Harakat tarkib avtokorxonaga barvaqt qaytgan taqdirda журнالга yozib quyish /8-илова/, barvaqt qaytib kelish sabablarini tez bartaraf etish maqsadida ishlab chiqarishni boshqarish markazi boshlig'iga ma'lumot berish.

2.6. Korxona shifokori (xamshira) tasdiqlangani holda kasal yoki spirli - ichimlik xidi kelgan haydovchini yo'lga chiqarmaslik.

2.7. Avtomobil yo'l transport xodisalarini natijasidada texnik shikastlanib, raqam belgisiz garajga qaytsa, haydovchidan yozma ravishda bo'lib o'tgan xodisa to'g'risida tushintirish xati talab qilish, u to'g'risida yo'l harakati xavfsizligi muhandisiga, korxona bosh muhandisiga ma'lumot berish va dalolatnomaga tuzish /9-илова/.

2.8. Yo'naliishdagi avtomobil larga texnik yordam ko'rsatishni ta'minlash.

2.9. «Uzavtotrans» korporatsiyasining 1994 yil 15

apreldagi 180-buyrug‘i talablariga muvofiq hujjat aborotini sifatli uzoq vaqtida yuritish.

2.10. Avtomobillarni yo‘lga chiqarishda haydovchilarni yo‘l sharoitlarining ahvoli to‘g‘risida va yo‘l varaqasida belgilab ob-havo o‘zgarishi to‘g‘risida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.

2.11. Navbatchilik vaqtida barcha xodisalarga belgilangan shaklda bildirishnomaga tayyorlash.

2.12. Avtotransport, korxonasining transport vositalari ishtirokida yo‘l-transport xodisasi ro‘y bergani to‘g‘risida axborot olingan taqdirda tezda harakat xavfsizligi buyicha muhandisiga va korxona rahbariga ma’lumot berish.

2.13. Harakat xavfsizligi muhandisi talabi bo‘yicha unga haydovchini jo‘natish.

2.14. Transport vositalarini qabul qilish va chiqarishdan tashqari bo‘sh vaqtarda texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni bajargandan so‘ng, barcha turdagi ishlarni amalga oshirish sifatini amalga oshirish.

2.15. Texnik xizmat ishlarini yaxshilash uchun yo‘naltirilgan meyoriy texnik hujjatlar talabini bajarish shinalar texnik holatini nazorat qilish buyicha nazorat-texnik punkta mexanigining qo‘llanmalari, spidometr ishini hisobga olishi bo‘yicha qo‘llanma shaharlararo qatnovchi avtomobillarni va boshqalarni qabul qilish bo‘yicha qo‘llanma.

2.16. Rahbarlarning ruhsatisiz begona va xususiy avtomobillarni avtotransport korxonasi xududiga kirgizmaslik.

2.17. Avtotransport korxonasiga harakat tarkibi kirgandan so‘ng, navbatchi nozir orqali ekspluatatsiya bo‘limi uchun harakat tarkibining mavjudligi va texnik holati to‘g‘risida bildirishnomaga tayyorlash. /1.0-ilova/

2.18. Muntazam ravshida harakat tarkibini yo‘lga chiqarib bo‘lgandan so‘ng bosh muhandisga belgilangan shaklda harakat tarkibining yo‘lga chiqishi to‘g‘risidagi bildirishnomani topshirish.

2.19. Avtokorxonaning mansabдор shaxslari tomonidan spidometrlarni tekshirish jurnalini yuritish /11-idova/.

3. Huquqlari

Navbatchi mexanik:

3.1. Harakat tarkibining texnik holati va tashqi ko‘rinishi yo‘l harakati qoidalari: texnik ekspluatatsiya: qoidalari talablariga muvofik –bo‘lmagan taqdirda uni yo‘lga chiqarmaslikka shu bilan birga ATK rahbariyatiga ma’lum qilishga:

3.2. Javobgar xizmatchilar va haydovchilarni, rag‘batlantirish va harakat tarkibining texnik holati va tashqi ko‘rinishi uchun jazo berish uchun avtokorxonalar rahbariyatiga hujjatlar takdim etishga.

3.3. Bo‘lim boshliqlari va uchastka ustalaridan nuqsonlarni keltirib chiqaradigan aniqlangan nosozliklar va sabablarni to‘la bartaraf etishni talab qilishga xaqi bor.

4. Javobgarlik

NTP navbatchi mexanigi quyidagilarga javobgardir:

4.1. Texnik nosozliklari bilan harakat xavfsizligiga xavf tug‘diradigan harakat tarkibini yo‘lga chiqarish.

4.2. Texnik hujjatda avtomobilni chiqish va kirish vaqtini hamda spidometrning hisoblash mexanizmi bo‘yicha harakatga mos bo‘lmagan ko‘rsatkichni yozing.

4.3. Harakat tarkibining o‘zboshimchalik bilan yo‘lga chiqishi.

4.4. Texnik ishlab chiqarish bo‘limiga harakat tarkibining texnik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etmaslik.

4.5. Avtotransport korxonasi rahbarlarining texnik хизмат

ko‘rsatish ishlarini yaxshilashga qaratilgan farmoyishlari, buyruqlari va lavozim qo‘llanmasi talablarini ajarmaslik.

5. Navbatchi mexanikning burchi.

1. Transport vositalarini ishga chiqishga va ishdan aytishda texnik holatini tekshirish, texnik sog‘ transport vositasini o‘z vaqtida ishga chiqarish.
 2. Transport vositasidagi buzuklikni aniqlash va o‘z vaqtida ta’mirlashga, texnik qarov o‘tkazishga yuborish.
 3. Yo‘l varaqasiga quyidagilarni tekshirish va yozish:
 - garajdan chiqayotgan va qaytayotgan avtomobilni haqiqiy spidometri ko‘rsatkichini yozish;
 - garajdan chiqish va qaytish vaqtini shtamp-soatga yoki ruchka bilan aniq yozish;
 - yonilg‘i bakidagi yonilg‘i qoldig‘ini aniqlash;
 - yuqoridagilarni aniqligini tasdiqlab imzo qo‘yish.
 4. Haydovchini ishga chiqarishda transport vositasini texnik sog‘ deb imzo quyish.
 5. Ishdan qaytgan avtomobilni qabul qilib olish va yo‘l varaqasiga imzo quyish.
 6. Ishga chiqqan avtomobillar to‘g‘risida har kuni bosh muhandisiga hisobot berish.
 7. Ta’mirlashda bo‘lgan avtomobillarni ishga tayyorlashni nazorat qilish.
 8. Yo‘l sharoiti to‘g‘risida haydovchilarni ogohlantirish va kerak bo‘lsa yo‘l varaqasiga tegishli yozuvlar yozish.
 9. Har bir avtomobil uchun shaxsiy varaqqa /letsovaya kartochka yuritish.
- Avtomobil transporti harakat tarkibining texnik holatini nazorat qilish bo‘yicha

YO'RIQNOMA

Harakat tarkibini texnik, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'li bilan tegishli texnik holatda doimo ushlab turish kerak.

Quyida ko'rsatilgan nosozliklarni bo'lgan harakat tarkibi foydalanishga quyilmaydi.

Dvigatel va uning tizimlari. Yoqilg'i va dizel dvigatellarining yoqilg'i tizimida oqimi bo'lishi mumkin emas.

Yoqilg'i baklarining kuyarlari va yoqilg'i to'sish moslamasi ishga yaroqli bo'lishi shart. Ishlatilgan gazlarda uglerod oksidi miqdori yoki ularning tutuni belgilangan meyordan oshmasligi lozim. /1,2-jadval/

I-jadval
*Karbyuratorli avtomobillarning ishlatilgan gazidagi
uglerod oksidi miqdori*

Dvigatel tirsakli valning aylanish chastotasi	SO ning oxirgi ruhsat etilgan miqdori, xajmi xissasi %
Pmip	1,5
P pov.0.8 Pnom	2.0

2-jadval
*Dizel avtomobillardagi ishlatilgan gazdagi tutun miqdori,
% hisobida*

Dvigatel ishining rejimi	Tutayishi %
Erkin tezlanish rejimida Maksimal aylanish chastotasi rejimida	40
	15

Gazbalonli avtotransportning gaz yonilg‘i tizmi germetik bo‘lishi kerak. Gazbalonli avtotransport vositalarida davriy tekshiruv muddati tugagan balonlardan foydalanishga qo‘yilmaydi.

3-jadval

Gazbalonlarning vazifalari, Tayyorlash metali	Sinovdan va tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni bajarish davriyligi
Siqilgan tabiiy gaz uchun: -legirlangan po‘latdan tayyorlangan	5
-uglerodli po‘latdan tayyorlangan	3
-suyultirilgan neft gazi uchun	2

Ishlatilgan gazlarni tashqariga chiqarish tizimidagi element va birikmalarini ishga yaroqli holda bo‘lishi kerak.

Transmissiya. Ishga yaroqsiz yoki noto‘g‘ri sozlangan ishlashish mexanizm uzatma pedaliga bosilganda ishlashish mexanizmi to‘la shovqinsiz o‘chirilishi tekshiriladi: lineyka yordamida pedalning erkin yurishi o‘lchanadi. Har xil turdag'i avtomobilarga 25 mm doirasida o‘zgarib turadi. Uzatmalarning keyin qo‘silishi yoki o‘z-o‘zidan o‘chib qolishi krandli uzatmaning sharnirida va oraliqdagi tirkak podshivnigi lyuftning oshganligi. Normadan tashqari shovqin, tebranish, transmissiya mexanizmlarining o‘ta qizib ketishi va ulardan moyning oqishi.

Tormozlar. Tormozlarning tishlanib qolishi yoki ish samaradorligi belgilangan normativlar bilan solishtirganda pasayishi. G‘ildiraklar tormozlarsh mexanizmi ishning

maromsizligini. Tormoz pedaliga tushadigan kuchini berilganda normativlarga solishtirliganda oshganligi. To'xtab turishi tormozi richagi tuxtatish moslamasining shikastlanishi.

Tormozlar tizimining uzatmasidan suyuqlik yoki xavoning siqib ketishi. Tormozlar xavo uzatmasidagi bosimni sozlash tizimini yoki kompressorni shikastlanishi. Pnevmatik yoki gidropnevmatik tormoz uzatmasidagi germetiklarning buzilishi ishlamayotgan dvigatelda xavo bosimini pasayishiga olib bormasligi lozim. Tormoz tizimining boshqaruv organlarini erkin holatda 30 minut davomida bosim rostlagichni sozlash past meyori darajasi $0,05 \text{ MCha} / 0,5\text{kg/sm}^2$ / dan pasayib ketmasligi lozim. 15 min tormoz tizimining boshqaruv organlarini to'la ishga tushirgandan so'ng.

Pnevmatik yoki pnevmagidravilk tormoz uzatmasining ressivoridagi siqilgan gaz bosimi texnik va normativ texnik hujjatlarda belgilangan meyordan bo'lishi kerak.

Tormoz tizimi trubkalarini konstruksiyada mo'ljallanmagan avtotransport vositalarining boshqa elementlari bilan tegib turishi yoki tormoz tizimidagi suyuqliklarning oqib tushishga yo'l qo'ymasligi kerak.

Jadvalda boshlanish tezligi 40 km soatda yo'l sinovlarida to'la yuklatilgan avtotransport vositasining tormoz tizimi samaradorligining ishchi tormoz tizimidan foydalanilgan holdadagi miqdori berilgan.

Transport vositasini tipi	Tormoz yo‘li m Ortiqroq
Yengil avtomobillar yoki ularning bazasida	12.2.
To‘la og‘irligi 5 tonnagacha bo‘lgan avtobuslar, Shu jumladan: UAZ, RAF tipidagi	13.6
KavZ, PAZ, LAZ turdagи to‘la og‘irligi 5 tonnadan yuqori bo‘lgan va boshqa avtobuslar	16.8
To‘la og‘irligi 3,5 tonnagacha bo‘lgan yuk avtomobilari. Shu jumladan: YERAZ, UAZ tipidagi	15,1
Shuningdek, 3.5dan 12 tgacha. Shu jumladan GAZ, ZIL-130 tipidagi avtomobillar	17,3
Shuningdek 12 t dan ortiq ZIL-133 G2. ZIL-133GY, Ural-377N, KamAZ, MAZ, KRAZ tipidagi avtomobillar	18,8

Shinalar

Shinalar markaziy yuritish yo‘lnomasi bo‘yicha protektor -rasmlarning yoyilishi meyori.

Shinalar protektori balandligi.

Yengil avtomabillar uchun	1,6 mm
Yuk avtomabillari uchun	1,0 mm
Avtobuslar uchun	2,0 mm dan kam bo‘lmasligi kerak

Tirkamalar va yarim tirkamalar uchun shinalar koldiq

balandligi normasi yarim tirkama tortuvchi avtomabillarning shinalari uchun belgilangan meyirlarga o‘xhash.

Harakat tartibining xususiyatiga shinalar o‘lchamlari ularga yo‘1 qo‘yilgan og‘irlik, hamda shinalardagi bosimining mos kelmasligi.

Karkasning shikastlanishi va qatlamlarga ajralishi, protektor va yonlarning (bokovina) kuchishi, ventellar va zolotniklarning shikastlanishi.

Protektorda, yonlarida va ko‘sh g‘ildirakli shinalar o‘rtasida begona narsalarni mavjud bo‘lishi.

Hisobot yozish.

Avtokorxona texnik va texnik nazorat bo‘lim ishlarini yozma taxlil qilish, grafik shaklda tuzish va boshqarish jarayonini chizish. (sxema)

3 - LABORATORIYA ISH

Ishning nomi: Ishlab chiqarishni boshqarishda axborot texnologiyalarini qo‘llash tizimini o‘rganish.

Ishning maqsadi: Avtomobilgara TXK va JT da ishlab chiqarishni-markazdan boshqarishni tashkil qilishni o‘rganish.

Kerakli jihozlar: Markazdan boshqarishni strukturasi.

Nazariy qism.

Avtokorxonalarda va aholi avtomobillariga texnik xizmat ko‘rsatish korxonalarida bo‘linmalar ishi, ularning o‘zaro aloqasi, ish vaqtি, ishlab chiqarish maydonlari va uskunalardan samarali foydalanish hakidagi ma’lumotlar asosida ishlab

chiqarish markazlashgan usulda boshqariladi. Harakatdagi tarkib yo‘ldan qaytgandan so‘ng, nazorat punktida tekshirilib qabul qilinadi. Bu vaqtida uning bo‘shligi va tashqi holati ko‘rikdan o‘tkaziladi, buzilish va nuqsonlari yozib olinadi, zarur bo‘lsa buzuqlik hakida dalolatnama tuziladi, rasmiylashtirilgan hujjat joriy ta’mir bajarish uchun ishlab chiqarishni markazlashtirilgan boshqaruvga beriladi.

- Gaz balloonli avtomobillar texnik nazorat punktidan o‘tgandan so‘ng, ochiq maydonchada joylashgan ish joyiga (postga), gaz apparatlarini zichligini tekshirishga yuboriladi, yuqori bosimli o‘tkazgich quvurlarining hammasi, gaz balloonlarining bo‘yni, sarflash va material jumraklarining zichligi tekshirishdan o‘tkaziladi.

- Kundalik texnik xizmat ko‘rsatishda (KTXK) harakatdagi tarkibining texnik holati nazorat qilinadi moy vasovutish suyuqligining sathini tekshirish, kabina va platforma (kuzov)ni tozalash, sovush va quritish (artish) ishlari ajraladi.

Harakatdagi tarkibnnny yuvish ehtiyojiga qarab mavsumiy sharoitlarni hisobga olgan holda sanitariya talablari va tashqi ko‘rinish qoniqarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida amalgam oshiriladi. Avtomobilni texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashga qo‘yishdan oldin, albatta uni yuvib, quritiladi, oziq-ovqat mahsulotlarini tashishga ixtisoslashtarilgan avtomobillarning kuzovi KTXK postlarida sanitariya ishlovi beriladi, o‘g‘it, zaxarli ximikatlar va radiaktiv moddalarni tashiydigan avtomobillarning kuzovini bunday yuklarni tashish tartibini belgilovchi yo‘riqnomalariga muvofiq zararsizlantiriladi, harakatdagi tarkib kundalik texnik xizmat ko‘rsatishdan so‘ng, rejaga muvofiq TXK va tamirlashda turish mintaqasiga yoki tenik xizmat ko‘rsatish va ta’sirlashni quyishga yuboriladi. Gaz balloonli avtomobillar gaz apparatlarining germetik zichligini tekshirish va yuvishdan so‘ng gaz tizimiga texnik xizmat

ko‘rsatish yoki joriy ta’mirlash uchun alohida ajratilgan joyga yuboriladi. Zarur bo‘lganda balondagi gaz chiqarib yuboriladi.

Avtotransport korxonalarida texnik xizmatni qolgan vazifalarini bajarish chizmada ko'rsatilgan.

Chizmadagi belgilar:

- _____ - ma'muriy umumiy bo'ysunish
 _ . . . _ . - tezkor aloqa
 _____ - amaliy aloqa

4 - LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi: Soha bo'yicha ishbilarmonlar uyinini tashkil etish.

Ishning maqsadi: 1. Soha bo‘yicha ishbilarmonlar o‘yinini o‘rganish. 2. Soha bo‘yicha Delfi usulini qo‘llashni o‘rganish.

Kerakli jihozlar: TXK va JT ishlarini grafigi, TXK normativ hujjatlari.

Nazariy qism.

Delfi usulining aniqligi ekspertlar sonini ko‘payishi bilan ortib boradi.

Afzalligim boshqaruvchan, aloqa, anonimligi, baholash imkoniyati, ekspert fikrining o‘zgaruvchanligi.

Kamchiligi – ko‘pchilikning fikrini ekspert bahosiga ma’lumi (keyingi turlarda).

Avtomobilarni texnik ekspluatatsiyasida qaror qabul qilishda axborotni ikki turdan foydalaniladi:

Ehtimollik - obyektlarni holatini ta'riflaydi va ko'rsatkichlarni o'rtacha qiymatlari haqida tushuncha beradi.

Individual - konkret obyektni holati yoki ko'rsatkichini ta'riflaydi.

Ehtimollik usulida – statistik baxolash uchun kuzatuvchilar natijasida to‘plangan ma’lumotlar matematik usullar yordamida ishlanadi va qaror qabul qilinadi.

Individual usulda axborotlar hisobotlardan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri detallarni o‘lchash hisobiga to‘planadi. Individual usulda axborotlar diagnostik stendlar yordamida avtomobil va uning agregatlarini texnik holatini parametrlarini o‘lchash yordamida olinadi.

ATK ni texnologik jarayoyonlari bilan, yangi texnika va texnologiyalarni jory etish bilan «Avtotranstexnika» ishlab chiqarish birlashmasi shug‘ullanadi.

Axborotni birlamchi manbai ATK da ishlatiladigan har xil xujjatlardir.

Xujjatlar qulay va EHM da ishlashga mos bo‘lishi kerak. Bundan tashqari xujjatlarda keltirilgan ma’lumotlar bir qator talablarni qondirish kerak:

- ma’lumot aniq va to‘liq bo‘lishi kerak;
- xajm bo‘yicha kichik bo‘lib, maonosi keng bo‘lishi kerak;
- ma’lumotlar qisqa va tushunarlii bo‘lishi kerak, keltirilgan sonlar qayta ishlanmaydigan holda bo‘lishi kerak.
- ATK da ishlab chiqarishni boshqarishda quyidagi birlamchi xujjatlar ishlatiladi:
 - ta’mirlash varaqasi (TX va T ni hisobga olish varaqasi);
 - ehtiyyot qismlarga talab;
 - avtomobilni shaxsiy kartochkasi;
 - TX reja- hisobi
 - bulardan tashqari ATK da har xil xujjatlar ishlatiladi.
 - quyida asosiy xujjatlar tarkibi bilan tanishib chiqamiz.

Qarorni ishlab chiqishda imitatsion modellashtirish va ishbilarmonlar o‘yinini qo‘llash: Murakkab ishlab chiqarish hollari odatda analitik ko‘rsatish juda qiyin, haqiqiy kattalikdagi

tajribala uchun katta vaqt, katta sarf-harajat kerak bo‘ladi, shu bilan birgalikda u ishlab chiqarish uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Undan tashqari tajribalar o‘tkazishda haqiqiy ishlab chiqarish uchun taqqoslashni ta’minalash qiyin, chunki absolyut taqqoslanuvchi analoglar (boshqa ATK lar) mavjud emas. Bir ishlab chiqarishda qarorlarni vaqt bo‘yicha ketma-ketlikda solishtirish ham qiyin, chunki effektivlik ko‘rsatkichlariga ma’lum etuvchi boshqa omillar baribir o‘zgaradi. Shuning uchun qaror qabul qilishda modellarda izlanish va baholash uslublari qo‘llaniladi. Model bu sistemadagi o‘zaro bolanishlar va real protsessorlar ko‘rinishining soddalashtirilgan holatidir. U butun sistema harakatiga tashkil etuvchi elementlar (faktorlar, podsistemalar) ning ma’lumi bashoratlash, baholash va o‘rganishga imkon beradi. Modellar fizik, matematik, logik, imitatsion va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Imitatsion modellash: Imitatsiya – bu xayolda keltirish, real obyektda haqiqiy tajribi o‘tkazmay turib holat mazmunini tushunishdir. Imitatsion modellashg – bu sistema harakatini bilish, hamda uning ishlashini ta’minalab beruvchi har xil strategiyalarni baxolash maqsadida real sistema modelini konstruktorlash protsessi va shu modelda tajribalar qo‘llashdir.

Imitatsiyalash jarayoni quyidagi asosiy etaplarni o‘z ichiga oladi:

Sistemaning chegaralarini belgilash, qarshiliklarni hamda effektivlik ko‘rsatkichlarini belgilash.

Modelni formulirovkalash – real sistemadan aniq bir logik sxemaga o‘tish

Modelni qurish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni saralash va tayyorlash

Modelni translatsiyalash, EHM da qo‘llaniladigan tmilda model ta’rifi bo‘lishi kerak.

Adekvatlik bahosi, real sistema uchun modelni olingan xulosalarni to‘g‘rillangan holda baxolash imkonini beradi.

Tajribalarni rejalashtirish

Tajeribalash, imitatsiyani amalgga oshirish va kerakli ma’lumotlarni olishdan iborat.

Interpretatsiya - modellash natijalari bo‘yicha xulosalar chiqarish.

Realizatsiya – real sistema uchun qaror qabul qilishda modelning ўзини ҳамда modellashтириш натижаларини амалда қўллаш.

O‘xshatish modelidan tashqi faktorlarni samaradorligi K ko‘rsatkichlarga ma’lumi baholanadi.

Ushbu modellar yordamida sex, ustaxonalar, korxonalarni o‘xshatish modellari tuziladi. O‘xshatish modellaridan ishbilarmonlar o‘yinida ham foydalaniladi.

Hisobot yozish.

Avtokorxona texnik va texnik nazorat ishlarini bajarishda zamonaviy usullarni qo‘llash va joriy etish, grafik shaklda tuzish va boshqarish jarayonini chizish. (sxema)

5 - LABORATORIYA ISHI 4-soat

Ishning nomi: ATKda ishlataladigan texnik-texnologik hujjatlar va hujjatlarini yuritish.

Ishning maqsadi: Avtokorxonalarning boshqarishda ish yuritish hujjatlarini qo‘llashni o‘rganish.

Kerakli jihozlar: ish yuritish hujjatlari rejalar.

Nazariy qism:

Ushbu laboratoriya ishida O‘zbekiston Respublikasi avtotransport korxonalarida avtomobilarni ishlatish bo‘yicha olib boriladigan hujjatlarni ishlatish, tayyorlanadigan hujjatlarni va ularni boshqarish, joylarda qo‘llash va foydalanish o‘rganiladi. (o‘rganiladigan hujjatlar to‘plami labaratoriya ishida ilova qilinmoqda).

Yo‘nalishga chiqish oldidan avtotransport
vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish hamda
yo‘lovchilar, bagaj va yuklar tashuvlarini amalga
oshiradigan haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazishni tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining "Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida"gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 15-son, 197-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 13 noyabrdagi 308-sun "Shahar yo‘lovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 46-son, 604-modda) muvofiq tijorat asosida yo‘lovchilar, bagaj va yuklar hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtotransport vositalarini yo‘nalishga chiqish oldidan texnik ko‘rikdan o‘tkazish hamda ularning haydovchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini belgilaydi.

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

avtotransport vositalari - yo‘lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar;

tashuvchi - mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida avtotransport vositasiga ega bo‘lgan, tijorat asosida yo‘lovchilar, bagaj, yuklar tashish xizmatini ko‘rsatadigan hamda bunga maxsus ruhsatnomasi (litsenziyasi) bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

2. Ushbu Nizom talablari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha yuridik shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan tashuvchilar uchun majburiydir.

3. Jismoniy shaxs bo‘lgan yuklarni tashuvchilar yo‘nalishga chiqishdan oldin avtotransport vositasini texnik sozligini, tozaligini va to‘liq jihozlanganligini tekshirishi, shuningdek avtotransport vositasini har qanday mastlik (alkogol, giyohvand modda va boshqalar) holatida, sezgirlik va e’tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta’sirida, yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan darajadagi charchoqlik va betoblikda boshqarmasligi kerak.

4. Tashuvchi avtotransport vositalari yo‘nalishga chiqish oldidan mexanik tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini hamda haydovchilar yo‘nalishga chiqishdan avval tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishlarini ta’minlashi shart.

5. Yo‘nalishga chiqish oldidan avtotransport vositalarini texnik ko‘rikdan, haydovchilarni esa tibbiy ko‘rikdan o‘tkazmay turib yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni tashish taqiqilanadi.

Yo‘nalishga chiqish oldidan texnik ko‘rikdan o‘tkazish natijalari bo‘yicha nosoz deb topilgan avtotransport vositalariga,

tibbiy ko‘rik natijalari bo‘yicha avtotransport vositasini boshqarishga ruxsat etilmagan haydovchilarga yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni tashish taqiqlanadi.

Ushbu bandda ko‘rsatib o‘tilgan holatlarda yo‘l varaqasi navbatchi dispetcherga qaytarilishi lozim.

6. Yo‘nalishga chiqishdan oldin avtotransport vositalarini texnik ko‘rikdan va haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkillashtirish tashuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

II BOB. AVTOTRANSPORT VOSITALARINI TEXNIK KO‘RIKDAN O‘TKAZISH

1-§. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari

2-§. Yo‘nalishga chiqish oldidan texnik ko‘rikdan o‘tkazish

1-§. Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari

7. Yo‘nalishga chiqishdan oldin avtotransport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida tashuvchiga tegishli bo‘lgan nazorat-texnik punktlarida (bundan buyon matnda NTP deb yuritiladi) amalga oshiriladi.

8. NTP yo‘nalishga chiqish oldidan avtotransport vositasining texnik ko‘rigini o‘tkazishga imkon beradigan quyidagi asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim:

- yoritish asbob-uskunalar bilan jihozlangan ko‘zdan kechirish chuqurchasi va (yoki) avtotransport vositasini ko‘tarishga moslashgan ko‘targich, estakada;
- avtotransport vositasining asbob-uskunalar to‘plami;
- amaldagi tekshirish tamg‘asi qo‘yilgan kamida ikkita yong‘in o‘chirgich (uglekislotali, kukunli);
- mazkur Nizomning 1-ilovasidagi ro‘yxatda ko‘rsatib o‘tilgan

texnik soz ahvolda bo‘lgan asbob-uskunalar, anjomlar.

9. NTPda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- avtotransport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tkazish;
- yo‘nalishdan qaytib kelgan avtotransport vositasini qabul qilishda uning holatini texnik nazoratdan o‘tkazish;
- avtotransport vositasi yo‘nalishga chiqqan va qaytgan vaqt, spidometr ko‘rsatkichi, texnik ahvoli va qo‘yilgan joyi yo‘l varaqasi va boshqa tegishli hujjatlarda to‘g‘ri ko‘rsatilishi;
- avtotransport vositalari saqlanadigan hududda yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

2-§. Yo‘nalishga chiqish oldidan texnik ko‘rikdan o‘tkazish

10. Avtotransport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun haydovchi mexanikka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- avtotransport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqidagi hujjat;
- haydovchilik guvohnomasi va (yoki) uning taloni, yoki ularni o‘mini bosuvchi tegishli hujjat;
- yo‘l varaqasi.

11. Yo‘nalishga chiqishdan oldin avtotransport vositalarining texnik ahvolini aniqlash Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 11 dekabrdagi 472-sон qarori (O‘zbekiston Respublikasining Hukumati qarorlarining to‘plami, 2000 y., 12-son, 75-modda) bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalari (bundan buyon matnda Yo‘l harakati qoidalari deb yuritiladi) va 2012 yil 4 iyuldagи 191-sон qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 26-27-son, 298-modda) bilan tasdiqlangan "Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligi to‘g‘risida"gi umumiyligi texnik reglament hamda boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Yo‘nalishga chiqishdan oldingi texnik ko‘rikka avtotransport vositalari toza ahvolda va yo‘lovchilarsiz

taqdim etilishi lozim.

12. Avtotransport vositalarining yo‘nalishga chiqishdan oldingi texnik ko‘rigini amalga oshirishda mexanikning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- texnik ahvoli yo‘l harakati xavfsizligi talablariga javob bermaydigan, navbatdagi texnik xizmatdan yoki texnik ko‘rikdan o‘tmagan avtotransport vositalarini yo‘nalishga chiqishlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- yo‘l varaqasining tegishli kataklarini to‘ldirish va mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi Navbatchi mexanikning avtotransport vositalarining yo‘nalishga chiqishlari va qaytishlarini ro‘yxatga olish kitobini (bundan buyon matnda Ro‘yxatga olish kitobi deb yuritiladi) yuritish;
- haydovchilarga ob-havo sharoitlari, yo‘llardagi vaziyat va yo‘l harakati xavfsizligi choralarini to‘g‘risida xabar berish.

13. Mexanik avtotransport vositasini yo‘nalishga chiqarishdan oldin quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

a) yurgizgich (dvigatel) ishlab turgan rejimda quyidagi tekshiruvlarni o‘tkazish:

- boshqaruv qurilmasidagi lyuft yig‘indisining ko‘rsatkichi belgilangan talablarga muvofiqligi;
 - qulflovchi moslama to‘xtatib turish tormoz tizimining dastagi (richagi)ni ushlab tura olishi;
 - oyna tozalagich va oyna yuvgichning ishlashi;
 - tashqi yoritish asboblari, tovush moslamasi (signal), falokat yorug‘lik ishoralarining belgilangan tartibda ishlashi;
 - spidometr qurilmasining belgilangan tartibda ishlashi va tamg‘alanganligi;
 - gidravlik yoki pnevmatik tormoz uzatmasining ishlashi;
 - havo almashtirish va isitish moslamalarining ishlashi;
 - yonilg‘i uzatish tizimi zich (germetik)ligi;
- b) yurgizgich (dvigatel) ishlamay turgan rejimda quyidagi

tekshiruvlarni o‘tkazish:

- avtotransport vositasida mavjud raqamlarni yo‘l varaqasida va avtotransport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqidagi hujjatda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarga muvofiqligi;
- tisarilishga qarshi tirkak (boshmoq)ning mavjudligi;
- tibbiyot qutichasi (aptechka)ning mavjudligi;
- yong‘in o‘chirgich mavjudligi;
- majburiy to‘xtaganini bildiruvchi belgi (miltillovchi qizil chiroq);
- avtotransport vositasining tegishli suyuqliklarining (tormoz, qo‘sishimcha ulovchi (ssepleniye), boshqaruva kuchaytirgichi, sovutish tizimlarining suyuqliklari, yurgizgichning (dvigatelning) moyi, oyna yuvgichning suyuqliklari va shu kabilar);
- yonilg‘i idishining germetikligi;
- shinalarni to‘g‘ri o‘rnatilganligi va ularning umumiy holati;
- old tomondagi oyna va orqa tarafni aks ettiruvchi ko‘zgularda haydovchini ko‘rish doirasi cheklab qo‘yilmaganligi;
- ressorlarning asosiy qatlami yoki markaziy bolti shikastlanmaganligi;
- g‘ildirak diskida yoki tegarchigida darz ketgan joylar mavjud emasligi;
- g‘ildiraklar ishonchli va mustahkam mahkamlanganligi;
- tormoz tizimining bo‘g‘im va qismlari ishonchli mahkamlanganligi;
- kuzov yoki kabina eshiklari qulflarining ishonchli ishlashi;
- falokat yuz bergan vaqtda chiqish joylari va ularni amalgalashish moslamalarining soz holatdaligi;
- avtotransport vositasining yo‘lovchilar o‘rindiqlari

ishonchli mahkamlanganligi va ularning soni ishlab chiqaruvchining texnik hujjatlarida ko'rsatilgan soniga mosligi;

- avtotransport vositasining salonida begona narsalar (kanistralar, domkratlar, ehtiyyot qismlar, g'ildiraklar va shu kabilar) yo'qligi;

- avtotransport vositasining kuzovida yemirilgan, zanglagan, jiddiy zarbalangan joylar yo'qligi;

- avtotransport vositasining tashqi ko'rinishi va saloni sanitariya qoidalari va normalariga muvofiqligi;

v) avtotransport vositasi suyultirilgan yoki siqilgan gazda ishlaganda qo'shimcha ravishda quyidagilarni tekshirish lozim:

- gaz balloonlarining kronshteynlarga, kronshteynlar esa platformaning uzunasi bo'ylab joylashgan bruslariga ishonchli mahkamlanganligi;

- gaz uskunalarining umumiy ahvoli, ularning ulanish joylarining germetikligi;

- dvigatelni yurgizish yengilligi va uning tirsakli vali turli tezlikda aylanayotgan vaqtida bekor turish tartibda gazda ishlashi.

14. Texnik ko'rik natijalari bo'yicha avtotransport vositasining texnik ahvoli yo'l harakati xavfsizligi talablariga mos kelgan taqdirda mexanik Ro'yxatga olish kitobining 10-ustuniga "Texnik soz" degan yozuvni kiritadi hamda yo'l varaqasining tegishli katagiga imzo (muhr) qo'yadi.

Texnik ko'rik natijalari bo'yicha avtotransport vositasining texnik ahvoli yo'l harakati xavfsizligi talablariga mos kelmagan taqdirda mexanik Ro'yxatga olish kitobining 10-ustuniga aniqlangan nosozliklarni aniq ko'rsatib "Texnik nosoz" degan yozuvni kiritadi va yo'l varaqasiga imzo (muhr) qo'yaydi.

III BOB. HAYDOVCHILARNI TIBBIY KO‘RIKDAN O‘TKAZISH

1-\$. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkillashtirish

2-\$. Yo‘nalishga chiqish oldidan tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish

1-\$. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkillashtirish

15. Tibbiy ko‘rik tashuvchining tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan tibbiy punktida yoki boshqa o‘rnatilgan tartibda faoliyat yuritayotgan tibbiyot muassasasida tibbiyot xodimi yo‘nalishga chiqish oldidan haydovchining jismoniy va ruhiy ahvolini tekshirish maqsadida o‘tkaziladi.

16. Tibbiy punkt xonasi sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ravishda isitish tizimlari, yoritish uskunalar, suv, tozalab turish va ta’mirlash asbob-uskunalar bilan ta’minlanadi.

17. Tibbiy xodim haydovchilar yo‘nalishga chiqishlaridan oldin ularning salomatligini muntazam ravishda monitoring qilib boradi hamda haydovchilar sog‘lig‘ining ahvoli bilan bog‘liq bo‘lgan sabablarni aniqlash maqsadida yo‘l-transport hodisalarini tahlil qilishda ishtiroy etadi.

18. Tibbiy xodim tashuvchining rahbariyati, yo‘l harakati xavfsizligi xizmati, foydalanish xizmati va xodimlar bo‘limi bilan yaqin aloqada ishlaydi. Tibbiy ko‘riklar natijasida jamlangan ma’lumotlar, keyinchalik tashuvlar xavfsizligini ta’minalash, yo‘l-transport hodisalari va jarohatlanishni kamaytirish, mehnat intizomini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi lozim.

19. Tibbiy xodimning haydovchilarni yo‘nalishga chiqishdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha kundalik ishlari hisobi mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi Haydovchilarni tibbiy ko‘riklardan o‘tkazishni hisobga olish

kitobida (bundan buyon matnda Tibbiy kitob deb yuritiladi) qayd etib boriladi.

20. Tibbiy xodim tibbiy ko‘rikni o‘tkazishga imkon beradigan quyidagilar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim:

- alohida xona;
- yozuv stoli, stullar, stol ustida turadigan lampa, kiyim uchun javon, ustki kiyim uchun ilgak;
- shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun kerakli vositalar bilan butlangan javon;
- arterial bosimni o‘lchash asbobi;
- termometr;
- chiqarilayotgan nafasdan spirt bug‘larini aniqlash asbobi;
- tibbiy kushetka;
- tibbiy asbob-uskunalar uchun kichik stol;
- tibbiy shpatellar.

Xona uzluksiz ravishda ishlab turadigan telefon aloqasi bilan jihozlangan bo‘lishi lozim.

2-§. Yo‘nalishga chiqish oldidan tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish

21. Haydovchilarni yo‘nalishga chiqish oldidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda tibbiy xodimning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- salomatligining ahvoli talablarga javob bermaydigan haydovchilarni yo‘nalishga chiqishlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- yo‘l varaqasining salomatlik ahvoliga tegishli bo‘lgan kataklarini to‘ldirish;
- bir smena davomida o‘tkazilgan tibbiy ko‘riklar natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashuvchining rahbariyatiga taqdim etish;

Tibbiy kitobni yuritish.

22. Haydovchini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda uning

sog‘lig‘i bo‘yicha suhbat olib boriladi hamda umumiylar tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

Suhbat davomida haydovchining ahvoli, dam olish (uxlash) davomiyligi va sharoitlari aniqlanadi.

Haydovchi salomatligini umumiylar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish vaqtida uning yuz qismidagi teri qoplamalari, lablar shilliq pardasi va ko‘z oqining holatiga e’tibor qaratiladi, tomir urishining tezligi, arterial bosim va tana harorati o‘lchanadi.

23. Haydovchilarni avtotransport vositasini boshqarishdan chetlatish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- tana haroratining ko‘tarilganligi aniqlanishi;
- arterial bosim oshganligi, taxikardiya, bradikardiya, yurak urish maromining buzilishi;
- har qanday mastlik (alkogol, giyohvand modda va boshqalar) holati, sezgirlik va e’tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta’siri, yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan darajadagi charchoqlik va betoblik aniqlanganda.

24. Tibbiy ko‘rik natijalari bo‘yicha haydovchining salomatligida yo‘nalishga chiqishga to‘sinqinlik qiladigan holatlar aniqlanmasa, tibbiy xodim Tibbiy kitobning 8-ustuniga "Ruxsat etildi" degan yozuvni kiritadi hamda yo‘l varaqasining tegishli katagiga imzo (shtamp) qo‘yadi.

25. Tibbiy ko‘rik natijalari bo‘yicha haydovchining salomatligida yo‘nalishga chiqishga to‘sinqinlik qiladigan holatlar aniqlansa, tibbiy xodim Tibbiy kitobning 8-ustuniga aniqlangan to‘sinqinliklarni aniq ko‘rsatib "Ruxsat etilmadi" degan yozuvni kiritadi hamda yo‘l varaqasiga imzo (shtamp) qo‘ymaydi.

26. Haydovchi yo‘nalishga chiqishdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortgan holatlarda, shuningdek haydovchida kasalliklar alomatlari, jarohatlar, har qanday mastlik (alkogol, giyohvand modda va boshqalar) holati aniqlanganda tibbiy xodim zudlik bilan tashuvchining

rahbariyatiga xabar beradi.

IV BOB. YAKUNIY QOIDA

27. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

Nizomga 1-ILOVA Nazorat-texnik punktining asbob-uskunalarini, anjomlari RO‘YXATI

T/r	Nomlanishi	Soni	Izoh
1	2	3	4
1.	Elektron soat (nazorat)	2	Aniqligi 1%
2.	Boshqaruv qurilmasidagi lyuftni tekshirish asbobi	1	O‘lchashdagi xato 5%
3.	Tormoz va qo‘shimcha ulovchi (ssepleniye) pedallarining erkin harakatlanishi masofasini o‘lhash asbobi (lineyka)	1	O‘lchashdagi xato 5%
4.	Shina naqshlari izlarining qoldiq chuqurligini o‘lhash uchun shtangensirkul	1	Birlik darajasi 0,01
5.	Shina manometri	1	0,1 kgk/kv. sm
6.	Uzun simli ko‘chma lampa	1	36 voltli kuchlanishga ularish uchun
7.	Dastasi 700 millimetrga teng og‘irligi 200 grammlig‘i bolg‘a	1	
8.	G‘ildiraklar kesishuvi darajasini (razval-sxojdeniye) o‘lhash asbobi (lineyka)	1	O‘lchashdagi xato 5 - 10%
9.	Ishqorli akkumulyatorli (batareyali) ko‘chma yoritgich (fonar)	1	

10.	Yo‘lda ishlataladigan gidravlik domkrat	1	
11.	G‘ildirakni yig‘ish asbobi (montirovka)	2	
12.	Shatakka olish uchun qattiq buksir	2	

Nizomga 2-ILOVA

Navbatchi mexanikning avtotransport vositalarining yo‘nalishga chiqishlari va qaytishlarini ro‘yxatga olish

KITOBI

Nizomga 3-ILOVA
Haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni hisobga olish
KITOBI

T/r	Haydovchining familiyasi, ismi, otasining ismi	Tabel raqami	Shikoyatlari	Tomir urishi	Tana harorati	Arterial bosim	Chiqarilayotgan nafas tarkibida alkogol miqdori	Haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish natijalari	Izoh
	<i>I</i>	2	3	4	5	6	7	8	9

Hisobot yozish.

Avtokorxonalarining boshqarishda ish yuritish hujjatlarini qo‘llashni qo‘llagan holda ularni to‘ldirish va ish yuritish hujjatlari rejalar yozma taxlil qilish va chizish. (sxema)

6 - LABORATORIYA ISHI 4-soat

Ishning nomi: Texnik bo‘lim ishini o‘rganish.

Ishning maqsadi: Texnik bo‘lim ishchilarining tartibini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: boshqarish tizimi, litsenziya olish:

Texnik bo‘lim

Texnik bo‘lim ishlab chiqarish jarayonini yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mehnatni ilmiy tashkil etish reja va tadbirlarni ishlab chiqadi, bajarilshini tashkil va nazorat qiladi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi tadbirlarini ishlab chiqadi va o‘tkazadi, xodimlarni tayyorlash, ishchilar va

muxandis texnik xodimlarni malakasini oshirish bo'yicha o'qishlar tashkil qiladi, nostandard texnologik jihozlarni loyihalash ishlarini, ishlab chiqarishni takomillashtirish va jihozlarni texnik qayta qurollanish ishlarini amalga oshiradi.

Texnik bo'lim boshlig'iga ixtirochi muhandislar, konsturktorlar, hisobot texnikalari va h.k. bo'ysunadi.

Material – texnik ta'minoti xizmati

Material texnik ta'minoti (MTT) xizmati korxonalarni kerakli ehtiyyot qismlar, agregatlar, yonilg'i-moy mahsulotlari bilan ta'minlaydi, kerakli zahirasini meyorida ushlab turadi va saqlashni, tarqatishni tashkil etadi.

НАРЯД N_____

на работу автотранспортн. средства марки _____
государственный номер _____

(наименование перевозчика) " ____ " _____ 20 ____ г. к путевому листу N _____	Заказчик _____
(наименование организации или Ф.И.О. лица, заказавшего автотрансп. средство) Автотр. ср-во. подать " ____ " 20 ____ г. к ____ час. ____ мин. по адресу:	

Автотр. ср-во. прибыло в ____ час. ____ мин. Показания спидометра _____ км. Перерыв на отдых водителю с ____ час. ____ мин. до ____ час. ____ мин. Окончил работу " ____ " 20 ____ г. в ____ час. ____ мин. Показания спидометра _____ км. Перевез пассажиров _____ человек Пункт окончания работы
--

<p>—</p> <hr/> <p>в распоряжение</p> <hr/> <hr/> <p>для поездки _____ человек по маршруту</p> <hr/> <hr/> <p>на период</p> <hr/> <hr/> <p>Выход из парка в _____ час. _____ мин.</p> <hr/> <p>Подпись диспетчера</p> <hr/>
--

<p>—</p> <hr/> <p>Заказчик</p> <hr/> <p>(МП) (подпись)</p> <p>Перевезено пассаж. _____</p> <p>выполн. км _____</p> <p>Часы в наряде _____</p> <p>общее расстояние перевозок _____ (вкл. нулевой пробег)</p> <p>в т. ч. сверхплана</p> <hr/> <p>Стоимость машино-часов</p> <hr/> <p>Стоимость сверхплан. пробега</p> <hr/> <p>Общая стоимость перевозок _____</p> <hr/> <p>Начальник отдела экспл.</p> <hr/> <p>Старший диспетчер</p> <hr/>

штамп перевозчика

Билетно-учетный лист №_____
(городского, пригородного автотранспортного средства)
 за "____" 200__ г.

Автотранспортное средство гос. N ____ Водитель
(кондуктор)

Вид билета	Цена билета	Серия	NN верхних билетов		Продано	
			до начала работы	после работы	количество билетов	на сумму

Выдана разменная монета на сумму:

Кассир _____

ЛИНИЯ ОТРЕЗА

Контрольный лист N ____ Автотранспортное средство N
____ Маршрут _____ " " 20 ____ г.

Начало работы на маршруте ____ час. ____ мин.

Водитель _____ Окончание работы ____ час. ____ мин.

Кондуктор _____

Диспетчер _____

Серия, N, цена верхн. бил. водит. (конд.)				РАЗДЕЛ 1. Данные водителей, кондукторов; отметки автовокзалов (автостанций)							
Серия Номер	основн	допол	багажн	Наименование остановочного пункта	Время прибытия	Время отправления	по рас	факт	по рас	факт	Штамп и подпись дежурного по а/в (а/c).
Цена	Кассир										

Hisobot yozish.

Avtokorxonalarining moddiy texnik ta'minoti bo'yicha yuritish hujjatlarini qo'llashni qo'llash, texnika va texnologiyalarni joriy etish, mehnatni ilmiy tashkil etish reja va

tadbirlarni ishlab chiqadi, naryad asosida tarqatilgan MTTni hisobini yozish va hisobot tayyorlash. (sxema asosida)

7 - LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi: ATKda TX va JT jarayonlarini tashkil etish usullarini o‘rganish.

Ishning maqsadi: ATK va TXKda harakat vositalariga TXK va JT ni tashkil qilish va boshqarishni o‘rganish.

Kerakli jihozlar: TXK va JT ishlarini grafigi, TXK normativ hujjatlari.

Nazariy qism.

O‘zbekistan Respublikasi avtomobil transporta Respublikada, MDX mamlakatlarida, shuningdek xorijiy yurt firmalarining zavodlarida ishlab chiqarilgan harakat tarkibi va uning qismlari (agregat, uzel, detallar) bilan birga bog‘langan.

Avtomobil tarnsporti ishining samaradorligi harakatdagi tarkib, uning konstruksiyasi: puxtaligi, ishonchliligi, texnik tayyorligi va ish qobiliyatiga bog‘liq. Bu samaradorlikka avtomobilni loyihalashtirish jarayonida asos solinadi, uning ishlab chiqarish, ishlatish, TXK va ta’mirlash jarayonlarida ta’minlash va quyidagi munosabatda bo‘lishligi talab etiladi:

- harakatdagi tarkibni butunligicha va uning tarkibi (agregatlar, uzellar, detallar) konstruksiyalarini doima takomillashtirib borish;
- ixtisoslashgan tayyorlovchi zavodlarda sifatli tayyorlash (yig‘ish);
- davlat standartlari, tayyorlovchi zavodlar yo‘rnomalari, texnik ekspluatatsiya qoidalariga amal qilish;
- texnik xizmat ko‘rsatish (TXK) va tamirlash (T) ni o‘z sifatli

bajarish;

- avtotransportdagi umumiy harajatlarni doimo kamaytirish sharti bilan yuqori sifatli va kerakli nomenklaturadagi ekspluatatsiya materiallari va ehtiyyot qismlarining meyoriy zaxiralaridan unumli foydalanishni o‘z vaqtida ta’minlash. Texnik xizmat ko‘rsatish turlari, sinov muddatlari, ish yuritish hujjatalari (forma blankalarini) to‘ldirish.

Yangi avtomobil va agregatlarni chiniqtirish va ishlatishning boshlanish davrida tayyorlovchi zavodi va firma-tayyorlovchilarining yo‘riqnomasi hamda ko‘rsatmasiga muvofiq texnik xizmat ko‘rsatiladi, 3000 - 4000 km, yo‘l yurgandan keyin chiniqtirishdan so‘ngi texnik xizmati ko‘rsatiladi.

- sanab o‘tilgan xizmatlarning asosiy vazifasi qotirish, sozlash va moylash-tozalash ishlarni bajarish yo‘li bilan buzilishlarning oldini olishdir. Bu davrda konstruksiya qismlarini jadal ravishda ishqalanib bir-biriga o‘zaro moslashishini hosobga olib, ko‘rsatilgan ishlarni ayniqsa diqqat bilan bajariladi.

- ishlatish oldindan o‘tkazilgan xizmatning (servis xizmatining) asosan 2-TXK tashkil etadi (4-ilova). Bu ro‘yhatga qo‘sishimcha ravishda dvigatel, transmissiya va boshqa mahkamlanadigan detallari tortishish momenti nazorat qilinadi.

- chiniqtirishdan keyingi texnik xizmat ko‘rsatishlarining majburiy ro‘yhatiga avtomobilning barcha agregatlaridagi moyni almashtirish kiradi.

- ishlatishning keyingi texnik xizmat ko‘rsatishlarining majburiy ro‘yhatiga avtomobilning barcha agregatlaridagi moyni almashtirish kiradi.

- ishlatishning asosiy davridagi texnik xizmat ko‘rsatishga nazorat, mahkamlash, sozlash, elektrotexnika, shina, moylash-tozalash va asosan agregatlarning ajratilmay va uzellarni avtombillardan yechmay bajariladigan boshqa ishlarni.

kiradi.

Harakatdagi tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish davriyligi ro'yhat va bajariladigan ishlarning mehnat xajmiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Kundalik texnik xizmat ko'rsatish (K TXK)

Birinchi texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK)

Ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2-TXK)

Suyultirilgan neft gaz (SNG), qisilgan tabiiy gaz (KTG)da ishlaydigan va gaz-dizel avtomobilari uchun qo'shimcha;

- vaqt-vaqt bilan gaz balonlarini ko'rikdan o'tkazish;

- avtomabillarning yonilg'i tuzilishi vaqt-vaqt bilan sinovdan o'tkazish.

Gaz balonlarining vaqt-vaqt bilan ko'rish va SNG hamda KTG da ishlovchi gaz balonli avtomobillar va gaz-dizel avtomobillari yonilg'i tizimining sinovi jadvaldan ko'rsatilgan muddatlaridan o'tkaziladi:

	Ishning bajarilish davri	
	Gaz balonlarini ko'rikdan o'tkazish va gidravlik sinovlar	Birikmalarining zichligi va pishiqligini aniqlash uchun yonilg'i tizimi sinovlari
Yonilg'ining turlari uchun metallardan yasalgan gaz balonlari		
Kesilgan tabiiy gaz uchun: (KTG) -legerlangan pulatdan yasalgan -uglefodli po'latdan yasalgan		
Suyultirilgan neft gazi	2	2

Birinchi va ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish asosiy vazifasi avtomobil detallari yeyilish jadaligini pasaytirishdir, 1-TXT va 2- TXK nazorat-diagnostika, mahkamlash, sozlash va harakat xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlar, yonilg'i-energetika resurslarini tejab sarflash, atrof muhitni

muhofaza qilish, buzilish va nosozliklarni aniqlash oldini olish va ularni o‘z vaqtida bartaraf etish ishlarini o‘z ichiga oladi. Moylashning ximmotologik xarichasiga muvofiq moylash-tozalash ishlari tugallanadi.

Harakatdagi tarkibga texnik xizmat ko‘rsatishning davriyligi, km.

Avtomobillar	1-TXK	2-TXK
Yengil avtomobillar	3600	14400
Avtbuslar	3150	12600
Yuk avtomobilari va yuk avtomobilari negizida avtobuslar	2700	10800

Texnik xizmat ko‘rsatishning davriyligi jadvalda keltirilgandan

Паз-3205	3600	14400
Камаз-5320	3600	10800
Маз-5335	3600	14400
Газ-5312	3600	14400
Газ-3307	3600	14400
Доган-LS	4500	9000
Мерседес-Бенц-0405	15000	45000
Мерсебес-Бенц-0302S-VB	9000	18000
Болде 214-17В	4500	9000
ДЭУ ВУ-113, BS-106	3600	10800
Икарус-260, 280	3600	14400
Нексия	10000	20000
Дамас	10000	20000
Тико	10000	20000

ajralib turadigan avtomobillar:

Hisobot yozish.

Farg‘onatrans asosiy uyushmasiga qarashli Farg‘ona avtokombinatning TXK va JT ishini yozma taxlil qilish va boshqarish jarayonini chizish. (sxema)

8 - LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi: Servis markazlarida texnik tizimni boshqarishni o‘rganish.

Ishning maqsadi: Avtomobilgarga texnik xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqarish ishlarini bajarish tartibini o‘rganish.

Kerakli jixozlar: Nizomga asosan reja va grafiklar

Nazariy qism.

Servis tizimi tuzilmasi va meyorlari.

Avtotransport vositalarining texnik shay holda bo‘lishi avtoservis korxonalari tomonidan o‘z vaqtida o‘tkaziladigan texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash amallari orqali taminlanadi.

Avtoservis ham rejaviy-ogohlantiruvchi tizimga asoslangan bo‘lib, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash to‘g‘risidagi Nizomlarda va avtomobilsozlik kompaniyalarining o‘z “Avtomobillardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasi” va boshqa meyoriy hujjatlarida o‘z aksini topgan.

Avtomobillar servisi 3 ta davrga bo‘linadi:

- sotisholdi davri;
- kafolat davri;
- kafolatdan keyingi davr.

Avtomobilgarga servis xizmati ko‘rsatish avtomobilsozlik kompaniyalarning distribyuterlari yoki dilerlari tomonidan amalga oshiriladi.

Masalan, “Djeneral Motors Uzbekistan” (qisqacha “DjiEm Uz”) yopiq aksiyadorlik jamiyatini tomonidan ishlab chiqarilayotgan avtomobillar uchun “Kafolat siyosati va amallar


bo‘yicha Yo‘riqnomalarida distribyuterlar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri “DjiEm Uz”ga bo‘ysinuvchi dilerlar uchun quyidagi asosiy ko‘rsatmalar keltirilgan:

- atamalar ro‘yhati;
- kafolat siyosati;
- kafolat amallari majmuasi;
- yangi avtomobilarni olish va saqlash;
- mahsulot haqida kompaniyalar ma’suliyati;
- mahsulot haqida ma’lumot.

Avtomobilning yurish qismi holatini tekshirish va zarurat tug‘ilganda sozlash:

- shinalardagi xavo bosimi;
- g‘ildiraklarni qotirilganligi;

Сервис тизими түзүлмөсү



1. Avtomobilarni yuvish, 2. Kafolatli xizmat ko‘rsatish, 3. Texnik xizmat ko‘rsatish, 4. Joriy ta’mirlash, 5. Avtomobilarni texnik ko‘rikdan o’tkazishga tayyorlash, 6. Avtomobillar va ehtiyot qismlar sotish, 7. Texnik ekspluatatsiya bo‘yicha maslahatlar berish, 8. Kuzovning zanglashiga qarshi ishlov berish, 9. Sotish oldi tayyorgarligi, 10. Tashxislash, 11. Yo‘lda texnik xizmat ko‘rsatish, 12. Agregatlarni mukammal ta’mirlash.

Servis tizimi tuzilmasi

Xizmat ko‘rsatish hujjatlari. Aholi avtomobillariga TXK va JT da avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatuvchi korxona uchun

quyidagi hujjatlarishlatiladi. Yuk yengil avtomobillar, avtobuslar, avtopoyezdlar, texnik holatiga xavfsizlik talablari tekshirish usullari karbyuratorli avtomobillardan chiqadigan gazlardagi uglerod oksidi va uglevodorod tarkibining meyorini o‘lchash usuli xavfsizlik talablari;

Yengil avtomobilarni sotish oldi tayyorgarligi;

Avtomobilga TXK korxonasida yengil avtomobilarning ta’mirlashdan o‘tgan kuzov va kuzov buyumlarini qabul qilish, ta’mirlash va qaytarib topshirish;

Xizmat ko‘rsatish sifatini mazmuni boshqarish buyicha korxonalar standartlari;

Shaxsiy yengil avtomobilarga TXK va JT haqida holat;

Shaxsiy yengil avtomobilarga kafolatli xizmat ko‘rsatish hakida holat;

Yengil avtomobilarni joriy ta’mirlashda qayta tiklanishga va foydalanishga talluqli: buyumlar va agregatlarni aholidan sotib olish uchun qabul qilish tartibi va xisob-kitob o‘tkazish hakida holat;

Yengil avtomobilarning ehtiyyot qismi:

Texnika xizmati ko‘rsatish: ta’mirlash va avtomobilarni ta’mirlash buyicha qo‘llanma:

Avtomobilardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasi:

Yengil avtomobilarga servis kitobchasi:

Avtomobilarning ehtiyyot qismlarining katologasi:

Korxonada bajariladigan ishlar va xizmatlar ro‘yhati:

Yengil avtomobilarga TXK va T dagi ishlarning turi buyicha texnologik hujjatlar;

Avtomobilarga TXK korxonasida ishni tashkil qilish asosi bo‘lib shaxsiy yengil avtomobilarga TXK va T haqidagi meyorlangan texnik tashkiliy va texnologik hujjatlar xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar avtomobilarga TXK va T korxona va tashkilotlar uchun majburiy, shu bilan birga meyorlangan texnik

hujjatlarni ishlab chiqaruvchilar va avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatuvchi tizim uchun hodim tayyorlaydiganlarning qaysi idoraga qarashliligidan qat’iy nazar holatdan ko‘rsatilgan talabalarga birdek rioya qilinadi.

Buyurtmalarni qabul qilish, rasmiylashtirish va bajarish.

Avtomabilning egasi (mulkdor) avtomobilni TXK korxonasini o‘z hisobidan olib keladi. Buyurtma oldindan telefon orqali yozdirib qo‘yilishi mumkin. Avtomobilarga TXK shaxobchisida avtomobilga TXK va JT uchun buyurtma rasmiylatiriladi, buyurtmaning bajarilishini hisobga olish avtomobilning buyurtmachilariga qaytarib topshirishni rasmiylashtirishni tegishli tasdiqlangan hujjat aylanmasi (qabul qilishda, bajariladigan ishlarga buyurtmalar, texnik asbob va servis kitobchasi lozim, qaytarib topshirishga naryadning nusxasi va servis kitobchasi bajarilgan tegishli TXK ishi haqida tasdiqlovchi belgi bilan) avtomobilga TXK va JT ni bajarilmoqda buyurtmalar avtomobil egasi tomonidan yozma xat ko‘rinishida o‘z navbatida korxona rahbari va bosh hisobchilar tasdiqlangan yozma kafolatli xat beriladi.

Ehtiyyot qismlariga bo‘lgan talabni aniqlash. Bundan ehtiyyot qismlar bilan ta’minalash tizimining sifatli va samarali faoliyati ko‘rsatishlari bir qator ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi: yetishmaydigan ehtiyyot qismlar xajmi: buyurtmalarni bir bor suralishidanoq ta’minalashni miqdori buyurtmalarni tezda va rejali bajarilishi vaqt vaqtsiz mahsulot (xizmat ko‘rsatish, ish) birligiga to‘g‘ri keladigan zahiradigi ehtiyyot qismlarining solishtirma qiymati yoki meyorlangan zaxiraning nisbiy qiymati harajatlar muomilasining darajasi va x.k. obunali TXK ni tashkil etish.

Avtomobilarga TXK korxonalarida xizmat ko‘rsatishni ilg‘or shakllarida biri fuqarolar va tashkilotlarning avtomobilariiga obunali (abonent)ning xizmat ko‘rsatish hisoblanadi. Bundan avtomobilarga TXK korxonasi va

avtomobil egasi orasida harakatdagi tarkibining belgilangan bahosi bo‘yicha xizmat uchun bir yil muddat davomida to‘langan shartnoma tuziladi. Obunali avtomobilga TXK uchun texnik holati talabga javob beradigan ma’lum marka va andozadagi avtomabillar qabul qilinadi, bunda ekspluatatsiya muddati 8 yildan yuqori bo‘lmasligi kerak.

1. Obuna olgan avtomobilning egasi avtomobilarga TXK korxonasining nomiga ariza beraldii. Ruhsat olgan obunachi avtomobilni avtomobilga TXK korxonasi kelishilgan kunda olib keladi. Avtomobilning texnik holati aniqlanadi va dalolatnama tuziladi.

1-shakl

2. Avtomobilning texnik qarori bo‘yicha dalolatnama
3. _____ markali _____ davlat raqami
4. _____ conli dvigatel _____ sonli shassi
5. Fuqaro _____ tegishli
6. Yashash manzili _____
7. Telefon raqami _____
8. Avtomobilning foydalanishdan boshlab bosib o‘tgan masofasi _____ ming km
9. Avtomobilning ishlab chiqarilgan yili _____
10. Holati, komplektligi _____
11. Qo‘srimacha tavsiyalar _____
12. Xulosa _____
13. Avtomobilarga TXK korxonasining vakili tomonidan tuzilgan dalolatnama _____ vazifa, familiyasi, sharifi.

Xuddi shu shaklga o‘xshash bir dalolatnama asosida TXK korxonasi tomonidan qabul qilingan avtomobilarga obunali TXK va JT uchun xisob texnik xaritasi to‘ldiriladi. Obuna shaklida xizmat ko‘rsatish avtomobil egalari uchun qulay,

chunki xizmat ko'rsatishda ular ma'lum kafolatlar qo'l keladi. Avtobillarga TXK korxonasida esa ishlab chiqarishni yaxshi rejalarshirish va doimiy mijozlarni avtobillarga muntazam kuzatib borishni tashkil qilish imkonini oshiradi.

Hisobot yozish.

Avtotransport korxonasining TXK va JT ishlarini bajaradi va bajargan ishlarini yozma taxlil qilish hamda avtoservis ko'rsatmasidagi shakl bo'yicha to'ldirish.

9-LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarish tizimini o'rghanish.

1. Ishdan maqsad: Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi tashkiliy tuzilmasi va boshqarish tizimini hamda uning faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadidagi vazifalarini o'rgatish.

2. Ishni bajarish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1- fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4143-sonli qarori bilan Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalarining tuzilmasi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 apreldagi 336-son qaroriga asosan quyidagilar Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasining asosiy vazifalari va funktsiyalari hisoblanadi:

1. Qashqadaryo viloyati hududida Transport vazirligiga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni samarali bajarish;
- transport va yo'l xo'jaligi sohasida qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish.
2. O'zbekiston Respublikasi Trans'ort vazirligi Qashqadaryo

viloyati trans'ort boshqarmasi quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

- tashuvlar, transport obhektlari xavfsizligini tashkil etish va tahminlash yuzasidan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va mavjudlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritadi hamda boshqaruv organlari va xo'jalik subhektlari tomonidan ularga rioya etilishini nazorat qiladi;
- mavjud xalqaro yo'laklardan samarali foydalanish va yangilarini tashkil etish bo'yicha takliflar kiritadi;
- transport va yo'l xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlar va kontseptsiyalarni, shuningdek, xavfsizligini tahminlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- shahar, shahar atrofi va shaharlararo-viloyat ichki yo'lovchi yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni o'tkazish yuzasidan yo'lovchi tashishlarni tashkil etish bo'yicha komissiya ishini belgilangan tartibda tashkil etadi;
- avtotashuvlar, avtovokzal, avtostantsiyalar faoliyati, harakatlar tartibi, jadvallari va grafiklariga rioya etilishi, yo'llarda harakatlanish tezligi monitoringi mahlumotlari, harakatlar chizmasi, tashish tariflari, haydovchilarning mehnat va dam olish tartibiga rioya etishini boshqarish va dispatcherlik nazoratini o'rnatishni tashkil etadi;
- mahalliy davlat hokimiyyati organlari va aholining transport va yo'l xo'jaligi faoliyatiga tegishli takliflarini ko'rib chiqadi, ularni umumlashtirgan holda, Vazirlik markaziy apparatiga taqdim etadi;
- yo'lovchilar yo'nalishlaridagi to'xtash bekatlarini xatlovdan o'tkazadi, Vazirlik markaziy apparatiga to'xtash bekatlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va tahmirlash yuzasidan takliflar kiritadi;
- sanoat korxonalari harakatlanuvchi tarkibining umumiyligi

foydalanishdagi temir yo'llarga chiqishi uchun ruxsatnomalar berishni belgilangan tartibda tahminlaydi;

- avtomobilg' transportida shahar, shahar atrofi, shaharlararo yo'lovchilar va yuk tashishlarni litsenziyalashni, litsenziya/litsenziya varaqalari reestrini yuritishni amalga oshiradi;

3. Quyidagilarni nazorat qiladi:

- tashuvchilar tomonidan yo'lovchilar hayoti, sog'ligi va (yoki) mulkiga zarar yetkazganlik uchun qonun hujjatlarida o'rnatilgan fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashga oid majburiyatlarning bajarilishi;

- litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi;

- avtomobilg' transportida yo'lovchilar va yuk tashishni amalga oshiruvchi avtotransport vositalarida litsenziya varaqalarining mavjudligi;

- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasidan yo'lovchilar avtovokzallari, avtostantsiyalar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tasarrufida bo'lgan umumiy foydalanishdagi yo'lovchilar yo'nalishlaridagi to'xtash bekatlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va tahmirlash ishlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan pul mablag'lardan maqsadli foydalanilganligi, Vazirlik va uning idoraviy mansub tashkilotlar xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilgan mablag'larning sarflanishi;

- avtomobilda xalqaro tashishni amalga oshirishda ruxsatnoma berish tizimi talablariga rioya etilishi;

- avtotransport vositlarining vazn va hajm parametrlariga rioya etilishi.

3. Qashqadaryo viloyati trans'ort boshqarmasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funktsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Ushbu vazifalarni samarali va to'laqonli bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4143-sonli qarori bilan boshqarmaning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan.

Yuqorida keltirilgan sxemadagi namunaviy tashkiliy tuzilmaga muvofiq Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarma boshlig'i (1ta), boshliq o'rinosbosari (1ta), "Avtomobil transporti bulimida (5-16), Avtomobil tashuvlari xavfsizligini taminlashni nazorat qilish bulimida (3-58), Daryo transpori bo'yicha bosh mutaxassis (0-1), Temir yo'l transporti bulimida (2-3), Havo transporti bo'yicha bosh mutaxassis (0-1), Shahar va tumanlardagi transport sektorlari (2-3), Moliya xo'jalik bulimi (2-3), Birinchi bulim (1), Xodimlar bo'yicha bosh mutaxassis (1), Huquqshunos (1), Murojaatlar va xatlar bilan ishlash sektori (1-2) nafar rahbar va mutaxasis xodimlar faoliyat ko'rsatishi keltirilgan.

Boshqarma boshlig'i – Boshqarmaga umumiy rahbarlik vazifasini bajaradi. Sohaga oid qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari,farmoyishlari va boshqa hujjatlar bilan sohaga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni, Vazirlik buyruqlari bilan yuklangan vazifa va funktsiyalarning ijrosini tahminlashni tashkil etish;

- boshqarmada vazifalarni taqsimlash;
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolish-qolmasligi maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish, ularning funktsional mashuliyatlari va yuklangan vazifalar bajarilishida shaxsiy

mashuliyatini oshirish;

-tumanlar (shaharlar) bo'linmalar va hududiy bo'linmalar tarkibiga kiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- hududiy bo'linmalar xodimlariga mukofot pullarini, lavozim maoshiga qo'shimchalar, moddiy yordam pulini to'lash, mukofotlash, rag'batlantirish va ularga nisbatan intizomiy chora ko'rish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

- davlat siri va maxfiy axborotlar toifasiga kiruvchi mahlumotlar bilan ishlashda qonunchilik talablariga rioya etilishini tahminlash.

Avtomobil transporti bulimi- avtomobil transporti sohasiga oid (yuk va yo'lovchi tashish, uyshmalar, avtomaktablar, avtomobil yo'llari va bosh.) ishlarni amalga oshiradi.

Daryo transpori bo'yicha bosh mutaxassis- daryo transporti sohasiga oid (yuk va yo'lovchi tashish va bosh.) ishlarni amalga oshiradi.

Temir yo'l transporti bulimi- temir yo'l transporti sohasiga oid (yuk va yo'lovchi tashish, uyshmalar, avtomaktablar, avtomobil yo'llari va bosh.) ishlarni amalga oshiradi.

Havo transporti bo'yicha bosh mutaxassis- havo transporti sohasiga oid (yuk va yo'lovchi tashish, uyshmalar, avtomaktablar, avtomobil yo'llari va bosh.) ishlarni amalga oshiradi.

Shahar va tumanlardagi transport sektorlari-shahar va tumanlar hududida sohaga oid ishlarni amalga oshiradi.

Moliya xo'jalik bulimi- moliyaviy ishlar va hisobotlarni bajaradi.

boshqarmada pul muammolari bo'yicha shug'ullanadi. shartnomalar bo'yicha pul munosabatlarini tartibga keltiradi, pul tushumini reja asosida ishlatishi uchun javobgar. Boshqarmada moliya, buxgalteriya va boshqa rejalishtirish ishlari va pul

mablag‘lari ishlatilishi bo‘yicha har xil turdagি hisoblarni yuqori tashkilotlarga, statistika va soliq bo‘limlariga to’shiradi.

Birinchi bulim- boshqarmada davlat siri va maxfiyligi mavjud bo’lgan xujjatlar bilan sho’g’illanadi.

Xodimlar bo‘yicha bosh mutaxassis- boshqarmada hodimlar bilan ish yuritadi. Ishchi-hodimlarni ishga qabul qilish ularni ishdan ozod qilish buyruqlarini tayyorlaydi. Hodimlarning ishga vaqtida kelib ketishini nazorat qiladi, tabellarni to’ldiradi. Hodimlarning sharoitlarini yaxshilash ularning madaniy dam olishlarini tashkil qilishda mas’ul hisoblanadi. Buyruqlar, xizmat safari va boshqa hodimlar bilan ishlash taktikasiga tegishli daftarlar, xujjatlar yuritilishini hamda saqlanishini tahminlaydi.

Huquqshunos- boshqarmada buyruqlar, qarorlar, shartnomalar va boshqa xuquqiy xujjatlar loyihalarining to’g’riliqi, kreditor qarzdorlik va boshqarmaning manfaatlarini xuquqiy jixatdan himoya qiladi.

Murojaatlar va xatlar bilan ishslash sektori- boshqarmada “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g’risidagi ishlarning qonun talablari darajasida bajarilishi bo‘yicha ishlarni olib boradi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan sho’g’illanadi. Boshqarmaga kirim qilingan xatlar va boshqa murojaatlar hamda korxonadan chiqim qilinayotgan xatlar va boshqa korrespondentsiyalar reestr daftarlarini qonun talablarida belgilangan tartibda yuritadi, kirim va chiqim, tegishliligi bo‘yicha boshqa korxonalarga tegishli xatlarning javoblari qonunda belgilangan muddatlarda ijro etilishi ustidan nazorat ishlarini olib boradi.

Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi xodimlarining чекланган сони 1-жадвалда келтирилган.

Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi xodimlarining чекланган сони

1-жадвал

T/и	Bo'linmalar nomi	Jami	shundan:		
			boshqaruv xodimlari	ishlab chiqarish xodimlari	shahar va tumanlardagi transport sektorlari
1	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi	51	18	3	30
	jami:	51	18	3	30

Izoh: xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

3. Ishning mazmuni

- 3.1. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi misolida boshqarish tizimini o'rganish.
- 3.2. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasining vazifasi va tuzilmaviy tarkibu.
- 3.3 Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida izmat vazifalari taqsimoti bilan tanishtiriladi.

4. Ishni bajarish tartibi

- 4.1. Talabalar viloyat transport boshqarmasi hodimlarining xizmat vaifalari bilan tanishtiriladi.
- 4.2. Talabalar viloyat transport boshqarmasi tuzilmaviy tarkibu bilan tanishadilar.
- 4.3. Talabalarga hodimlarining xizmat vaifalaridagi majburiyati, vakolati va javobgarligi to'g'risidagi tushunchalar bilan

tanishadilar.

4.4. Viloyat transport boshqarmasi boshqarish tizimini o'rganadi.

Ishlab chiqarishni boshqarishda axborot texnologiyalarini qo'llanish tizimini o'rganish laboratoriya ishi bo'yicha

Talaba _____

guruhi _____ O'tkazilgan joy,

sana _____

Ishning maqsadi _____

1. Ishning maqsadi
2. Umumiy ma'lumotlar
3. Me'yoriy va statistik ma'lumotlar manbalari ro'yhati
4. Talabalar viloyat transport boshqarmasi hodimlarining xizmat vaifalarini yozishadi.
5. Talabalar viloyat transport boshqarmasi tuzilmaviy tarkibu bilan sxemasini chizadi.
6. Talabalar boshqarma hodimlaridan bittasining xizmat vaifalaridagi majburiyati, vakolati va javobgarligi to'g'risidagi ma'lumotni yozishadi.
7. Xulosa

10 - LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasidan litsenziya olish tartibini o'rganish.

1. Ishdan maqsad: Talabalarga O'zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2019 yil 30-iyuldagagi “Avtomobilg’ transportida yo’lovchilarini va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo’nalishlar bo’yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko’rsatishning mahmuriy reglamentini tasdiqlash to’g’risida”gi 636-sonli qaroriga asosan avtomobilg’ transportida yo’lovchilarini va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo’nalishlar bo’yicha tashish faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olish tartibini o’rgatish.

2. Ishni bajarish tartibi. O’zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to’g’risidagi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30-iyuldagagi “Avtomobilg’ transportida yo’lovchilarini va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo’nalishlar bo’yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko’rsatishning mahmuriy reglamentini tasdiqlash to’g’risida”gi 636-sonli qarori asosida itsenziya olish tartibi o’rganiladi.

Nazariy qism O’zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish QOIDALARI

- I. Umumiy qoidalar
- II. Tashishning umumiy shartlari
- III. Yuklarning ayrim turlarini tashish xususiyatlari
- IV. Tashuvchilar, yukni jo’natuvchilar va yukni oluvchilarning huquq va majburiyatlari hamda ularning javobgarligi
- V. Yakunlovchi qoidalar

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Qoidalar "Avtomobil transporti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq avtomobil transportida tashish jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlarini, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini tartibga soladi, shuningdek yuklarni tashishga, ularning saqlanishiga qo‘yiladigan talablarni va O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashishning boshqa shart-sharoitlarini belgilaydi.

Ushbu Qoidalarning amal qilishi fuqarolarga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini qo‘llagan holda shaxsiy ehtiyojlar uchun ular tomonidan bajariladigan yuklarni tashishga tatbiq etilmaydi.

Avtomobil transportida xavfli, yirik gabaritli va og‘ir yuklarni tashish xususiyatlari alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

2. Yuklarni temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transporti va transportning boshqa turlari bilan o‘zaro hamkorlikda avtomobil transportida tashishda yuzaga keladigan munosabatlar va bunday tashishni tashkil etish tartibi tashuvchilar o‘rtasida tuziladigan bitimlar bilan tartibga solinadi.

3. Bojaxona nazorati ostidagi yuklarni tashish O‘zbekiston Respublikasining bojaxona qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Yuklarni avtomobilda xalqaro tashishlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

5. Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

tashish shartnomasi - u bo‘yicha tashuvchi unga yukni jo‘natuvchi tomonidan ishonib topshirilgan yukni borish

punktiga yetkazib berish va uni yukni olishga vakil qilingan shaxsga (yukni oluvchiga) topshirish majburiyatini olgan, yukni jo‘natuvchi esa yuk tashilganligi uchun belgilangan to‘lovni to‘lash majburiyatini olgan bitim;

haydovchi - tashuvchining vakili hisoblangan va avtotransport vositasini boshqarish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

yukni jo‘natuvchi - yukning mulkdori nomidan ish ko‘rvuchi yoki tashish shartnomasi bo‘yicha yukning mulkdori hisoblangan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yukni oluvchi - yukni olishga vakolat berilgan va yukka doir ilova hujjatlarida ko‘rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yuk - yukni oluvchiga berish uchun yukni jo‘natuvchidan tashishga qabul qilib olingan moddiy boyliklar. Yuk tovardan va taradan iborat bo‘ladi. Yukning sof og‘irligi "netto", taraning og‘irligi - tara, tara bilan birgalikda tovarning umumiy og‘irligi "brutto" deb ataladi;

yuk o‘rni - avtomobil transportiga yuklashda yoki tushirishda uni tashish yoki yukni oluvchiga topshirish uchun qabul qilish uchun yukning shartli birligi;

mijoz - yukni jo‘natuvchi, yukni oluvchi, ekspeditor;

tirkama - avtotransport vositasi tomonidan shatakka olinadigan va o‘z energiya manbaiga ega bo‘lmagan yuklarni tashish uchun xizmat qiladigan avtotransport vositasi;

tirkama aravalari - uzun o‘lchamli yuklarni tashish uchun qo‘llaniladigan tirkamaning bir turi;

yarimtirkama - to‘liq massasining bir qismi o‘tirg‘ich qurilmasi orqali o‘tirgich shatakchiga beriladigan tirkamaning bir turi;

paket - taglikda yoki uningsiz bitta yirik joyga shakllantirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan usulda yuklash, joyni o‘zgartirish va tushirish bo‘yicha operatsiyalarni bajarish

imkonini beradigan mayda tarali yoki tarasiz donali yuklar turkumi;

tashuvchi - mult huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda avtotransport vositasiga egalik qiluvchi, yuklarni tashish bo'yicha tijorat asosida xizmatlar ko'rsatuvchi va bunga litsenziyaga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

tagliklar - ayri yuklagichlar va kranlar yordamida ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash uchun moslama, ko'p martalik tara hisoblanadi;

yo'l varaqasi - avtotransport vositasining ishini aniqlash va hisobga olish uchun belgilangan namunadagi yuridik hujjat;

tez buziladigan yuklar - ularni saqlash uchun tashishda maxsus harorat va sanitariya-gigiyena rejimlariga rioya etish talab qilinadigan yuklar;

tara - o'rab-joylashtirishning asosiy elementi, u o'zida tashishda, saqlashda va ortish-tushirish operatsiyalarida mahsulotlar va tovarlarni joylashtirish va ularning saqlanishini ta'minlash uchun mo'ljallangan buyumni ifodalaydi;

konteyner - kamida 1 kub.m hajmli, tovarlarni tarasiz, birlamchi o'ramda yoki yengillashtirgan tarada tashish uchun mo'ljallangan ko'p martalab foydalilanidigan tara;

o'rab-joylashtirish - unga solingan mahsulotlar va tovarlardan ajratilmaydigan, ularning zarur anjomi hisoblangan va unda mahsulotlar va tovarlarni saqlash hamda ularning sifat va miqdor jihatidan saqlanishini ta'minlash uchun xizmat qiladigan buyum;

tovar-transport yukxati - transport jarayonining qatnashchilari uchun yagona bo'lgan, tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishga, ularni yo'lda hisobga olishga, kirim qilishga, ombor, tezkor va buxgalteriya hisobi uchun, shuningdek yuk tashilganligi uchun hisob-kitob qilish va bajarilgan ishning hisobini yuritish uchun mo'ljallangan hujjat.

6. Yo‘l varaqalari va yuklarni avtomobil transportida tashishga tegishli boshqa hujjatlarning (yuklarni tashish masofalarini o‘lchash dalolatnomalarini rasmiylashtirish bo‘yicha nizomlar, yo‘riqnomalar, metodik qo‘llanmalar) shakllari namunalari O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

II. TASHISHNING UMUMIY SHARTLARI

7. Avtomobil transportida yuklarni tashish tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Tashuvchi yukni tashish shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda yetkazib berishi kerak. Yukni yetkazib berish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilishi davriga ko‘paytirilishi yoki tomonlarning ikki tomonlama bitimi bo‘yicha uzaytirilishi mumkin. Yukni yetkazib berish kechiktirilishi to‘g‘risida kechikishning sabablari va vaqtin ko‘rsatilgan holda yo‘l varaqasiga belgi qo‘yiladi.

8. Yuklar tashilganligi uchun, agar qonun hujjatlarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, tashish shartnomasida belgilangan to‘lov undiriladi.

9. Tashuvchi, agar qonun hujjatlarida, tashish shartnomasida o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, yoki majburiyatlarning mohiyatidan kelib chiqmasa unga tegishli bo‘lgan tashish to‘lovini va tashish bo‘yicha boshqa to‘lovlarni ta’minlash uchun tashish uchun unga berilgan yukni ushlab turish huquqiga ega.

10. Tashuvchi, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, tashish shartnomasini bajarish uchun zarur bo‘lgan avtotransport vositalarining tiplari va sonini mustaqil belgilaydi.

Tashuvchi yukni tashish shartnomasida belgilangan muddatda tegishli yukni tashish uchun yaroqli holatdagi soz

avtotransport vositasini yukni jo‘natuvchiga yukni ortish uchun beradi, yukni jo‘natuvchi esa yukni belgilangan muddatlarda tashuvchiga taqdim etadi.

11. Agar mijozni tashuvchi tomonidan berilgan avtotransport vositasi qoniqtirmasa, u holda u tegishli dalolatnomani tuzib va uni tashuvchiga berib avtotransport vositasini rad etishga haqlidir.

12. Yukni jo‘natuvchi tomonidan tashishga yaroqli bo‘limgan holatda taqdim etilgan va uni o‘z vaqtida jo‘natishni ta‘minlaydigan muddatda yukni jo‘natuvchi tomonidan zarur holatga keltirilmagan yuk taqdim etilmagan deb hisoblanadi.

13. Agar tashuvchi quyidagi holatlar bo‘yicha tashishda uning saqlanishini ta‘minlay olmasa, tashuvchi yukni tashish uchun qabul qilishni rad etishi mumkin:

yuk zarur tarzda bo‘limgan tarada yoki o‘ramda taqdim etilgan;

yuk bajarish uchun yuklarni tashishga qabul qilingan buyurtmanomaga muvofiq emas;

yukning taqdim etilgan turkumi massasi avtotransport vositasining yuk ko‘tarishidan ortiq;

yuk tashish yo‘nalishining avtomobil yo‘li bo‘ylab harakat vaqtincha to‘xtatilishi yoki cheklanishi tufayli yetkazib berilishi mumkin emas.

14. Agar:

bunday tashish qonun hujjatlarida taqiqlangan bo‘lsa;

tovar xususiyatiga ega bo‘lgan yuklar tovar-transport yukxatlari bilan rasmiylashtirilmagan bo‘lsa;

tashish uchun taqdim etilgan yuklarning har xil tiplari o‘z xossalariga ko‘ra bir avtotransport vositasida birgalikda tashishga qo‘yilmasa;

yuk yo‘l harakati xavfsizligiga xavf solsa va Yo‘l harakati qoidalari talablariga javob bermasa yukni jo‘natuvchi

(ekspeditor) yukni taqdim etmasligi, tashuvchi esa yukni tashish uchun qabul qilmasligi kerak.

15. Yukni jo‘natuvchi yuklarni tashishga taqdim etishda narxni e’lon qilishga haqlidir.

Yukning e’lon qilingan qiymati miqdori tashuvchida shubha uyg‘otgan taqdirda u o‘z hisobidan shartnomaga asosida ekspertlarni jalb etishi va yukning real qiymati to‘g‘risida dalolatnomaga tuzishi mumkin.

16. Qiymati e’lon qilingan yuk tashishga taqdim etilganda yukni jo‘natuvchi uch nusxada yuk o‘rinlari ro‘yxatini tuzishga majburdir. Ro‘yxatning bir nusxasi yukni jo‘natuvchida, ikkinchi nusxasi - tashuvchida qoladi, uchinchi nusxasi - yukni jo‘natuvchi tomonidan yuk o‘rnining ichkarisiga qo‘yiladi.

17. Yuklarni qabul qilish-topshirishda tovar-transport yuxsatida ushbu yuklarning yuk o‘rinlari massasi va soni (imkoniyati bo‘lsa sanab) ko‘rsatiladi.

U bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarning harakati hisobi yuritilmaydigan yukni tashish erkin shakldagi buyurtma-naryadaga asosida amalga oshirilishi mumkin. Har xil avtovositalarida tashilishi kerak bo‘lgan yuk ortilgan taqdirda foydalananiladigan avtovositalari soniga muvofiq bo‘lgan miqdorda buyurtmalar-naryadlar tuziladi.

18. Tarali va donali yuklar massasi yukni jo‘natuvchi tomonidan ular tashishga taqdim etilgunga qadar belgilanadi va yuk o‘rinlariga tamg‘a bosishda ko‘rsatiladi. Ushbu yuklarni tashishda bir avtovositalarida tashiladigan yukning butun turkumining umumiyligi massasi tarozida tortish orqali yoki yuk o‘rinlarining barcha massasini sanab chiqish yo‘li bilan belgilanadi. Yuklarning ayrim turlari uchun massa o‘lchash yoki hajmli massa bo‘yicha hisoblab chiqish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin.

19. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tovar-transport

yukxatida yukning massasini va, agar massa to‘g‘ridan-to‘g‘ri tortish orqali aniqlanmasa, uni aniqlash usullarini ko‘rsatishi kerak.

20. Yuklar yopiq avtotransport vositasida yoki yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan tamg‘alangan alohida seksiyalar, konteynerlar yoki sisternalarda tashilganda, yukning massasi yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan aniqlanadi.

21. Notovar xususiyatga ega bo‘lgan yuk massasini aniqlashda yukni jo‘natuvchi tortish yo‘li bilan bir rusumdag‘i bir necha avtotransport vositalarini nazorat tartibida tarozida tortishi mumkin, shundan keyin yukning umumiyl massasini avtotransport vositalari soniga bo‘lish yo‘li bilan bir avtotransport vositasidagi yukning o‘rtacha massasini aniqlash mumkin.

22. Agar tashish uchun taqdim etilgan yukning tarasi yoki o‘ramini tashqi tomonidan ko‘zdan kechirishda tashuvchi tomonidan yukning yo‘qotilishiga, buzilishiga yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan nuqsonlar aniqlansa, yukni jo‘natuvchi nuqsonlarni bartaraf etishi yoki tashishda yukning saqlanishini ta’minlaydigan boshqa ishlarni bajarishi kerak.

23. Yukni jo‘natuvchi tomonidan tashish uchun taqdim etilgan yukning massasi avtotransport vositasining nominal yuk ko‘tarishidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

24. Yukning massasi yoki sonini aniqlash yukni jo‘natuvchi va yukni oluvchi tomonidan bir xil usulda amalga oshiriladi. Tashish uchun yukni qabul qilishda massani aniqlash uchun butun yukni tarozida tortish zarur. Yukning alohida qismlarini tortish orqali yukning umumiyl massasini aniqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

25. Sisterna kuzovli avtotransport vositalarida tashiladigan to‘kiladigan va uyuladigan yuklar, shuningdek quyib

tashiladigan oziq-ovqat yuklari massasi avtotransport vositalarini tashish uchun mo‘ljallangan turg‘un tarozilarda aniqlanadi.

26. To‘kiladigan, uyuladigan va quyuladigan yuklarni tashish oldidan avtotransport vositasining massasi tekshiriladi.

27. Yuklarni avtomobillar tortiladigan tarozilarda tortish yukning massasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi, tortish mijoz bilan tashuvchi o‘rtasidagi kelishuv bo‘yicha amalga oshiriladi.

28. Avtopoyezdlarni tortishda butun avtopoyezdni taroziga o‘rnatish zarur. Agar platformaning o‘lchami butun avtopoyezdni o‘rnatish imkonini bermasa, shatakchi va tirkama alohida tortiladi.

29. Katta o‘lchamli va uzun yuklarni tortishda yuklarning quyi uchlari tarozilarning harakatlanmaydigan qismlaridan (staninalar, ustunlar) yoki bog‘lovchi romdan tashqarida turmasligi kerak.

30. Yuklarni tarada, o‘ramda yoki mayda turkumlar bilan tashishga tayyorlashda yukni jo‘natuvchi har bir yuk o‘rnini markalashga haqlidir.

Yukka tovar-transport yukxatlaridagi ma’lumotlar markalashga muvofiq bo‘lishi kerak.

Yukning xossalari ko‘rsatish va yuklarni ortish (tushirish), tashish yoki saqlashning maxsus qoidalariga rioya qilish zarur bo‘lganda yukni jo‘natuvchi maxsus markalanishi kerak.

31. Markalaydigan yorliqlar qog‘oz, karton, mato, metall yoki plastmassadan tayyorlanishi mumkin hamda eng qulay, yaxshi ko‘riladigan joylarda taraga ishonchli mahkamlangan bo‘lishi kerak.

32. Bir necha yukni oluvchilar manziliga yetkazib beriladigan sim chiviqlar, quvurlar yoki boshqa katta o‘lchamli

buyumlarni tashishda ushbu buyumlarning oxiri moyli bo‘yoqda markalanishiga yo‘l qo‘yiladi.

33. Uyulgan, to‘kilgan yoki quyilgan holda ortiladigan va tushiriladigan yuklarni tashishda markirovka qilinmaydi.

34. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) furgon tipidagi kuzovli avtotransport vositasini, bir yuk oluvchiga yetkazib beriladigan konteynerlarni tamg‘alashga, yashchiklar, qutilar va boshqa taradagi mayda donali tovarlarni esa tamg‘alashga yoki banderol qilishga haqlidir.

Yuklarni banderol qilish o‘ramning yaxlitligini buzmasdan yukka yaqinlashishni istisno etishi kerak.

Yukni tamg‘alash yoki banderol qilish holati tovar-transport yukxatida qayd etiladi.

35. Bir necha manzillar bo‘yicha tashiladigan yukning saqlanishini ta’minlash uchun tashuvchi kuzovni alohida tamg‘alanadigan seksiyalarga bo‘lish imkonini beradigan to‘silalar o‘rnatishi mumkin.

36. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan tamg‘alangan yuk tashuvchi tomonidan yukni oluvchiga yukning massasi, holati va yuk o‘rinlari soni tekshirilmasdan topshiriladi.

37. Kuzovni tamg‘alash tamg‘aning yaxlitligini buzmasdan yukka yaqinlashish va avtotransport vositasi kuzovi, konteyner, seksiya yoki alohida yuk o‘rnining tamg‘asini olib tashlash imkonini berilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

38. Yukni avtotransport vositasiga ortish, shuningdek uni mahkamlash, to‘sish, bog‘lash, tushirish, mahkamlagichlar, qoplamalarni olib tashlash, bortlarni (sisternalarning qopqoqli tuynuklarini) yopish va ochish, shlanglarni tushirish va chiqarib olish, shlanglarning vintlarini burash yoki orqaga burash, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi) tomonidan amalga oshiriladi.

39. Tashuvchi yukni jo‘natuvchi (yukni oluvchi) bilan kelishuv bo‘yicha ortish-tushirish ishlarini bajarishni o‘z zimmasiga olishi mumkin.

40. Yuklar avtotransport vositasi kuzovida tashish vaqtida yukning o‘rami va avtotransport vositasi saqlanishi ta’minlanadigan tarzda joylashtirilishi va mahkamlanishi kerak.

41. Yukni jo‘natuvchi (ekspeditor), yukni oluvchi, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ortish, tashish va tushirish uchun zarur bo‘lgan moslamalar va yordamchi materiallarni taqdim etishi, o‘rnatishi va olib tashlashi kerak.

42. Mijozga tegishli bo‘lgan barcha moslamalar tashuvchi tomonidan tushirish punktida yuk bilan birgalikda yukni oluvchiga beriladi yoki tashish shartnomasiga muvofiq ortish punktiga yoki boshqa joyga qaytariladi.

43. Tashuvchi tomonidan avtotransport vositasida yukni taxlash yoki mahkamlash yo‘l harakati xavfsizligi yoki yuk va/yoki avtotransport vositasi saqlanishini ta’minalash talablariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda tashuvchi mijozni bundan xabardor qilishi va, agar tashish shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, aniqlangan kamchiliklar mijoz tomonidan bartaraf etilguniga qadar tashishni bajarishni to‘xtatishi kerak.

44. Tashuvchining avtotransport vositasi yuklash uchun kelish vaqt ortish punktida tegishli belgi qo‘yilgan yo‘l varaqasi yukni jo‘natuvchiga (ekspeditorga) taqdim etilgan paytdan boshlab, tashuvchining avtotransport vositasi ortish uchun kelgan vaqt esa - tovar transport yukxati va tushirish punktlariga kelganlik to‘g‘risidagi tegishli belgi qo‘yilgan yo‘l varaqasi yukni oluvchiga taqdim etilgan paytdan boshlab hisoblanadi.

45. Agar haydovchi yukni jo‘natuvchi (ekspeditor) tomonidan rasmiylashtirilgan tovar-transport yukxatini olgan

bo‘lsa va yuk avtotransport vositasining yuk bo‘linmasida turgan bo‘lsa, tashuvchining avtotransport vositasini yuklash tugallangan deb hisoblanadi.

46. Yuk yuk bo‘linmasidan to‘liq tushirilganda, yuk bo‘linmasini tozalash bo‘yicha barcha zarur ishlar bajarilganda va yuk olinganligi to‘g‘risida yukni oluvchining belgisi qo‘yilgan tovar-transport yukxatlari haydovchiga topshirilganda avtotransport vositasidan yukni tushirish tugallangan deb hisoblanadi.

Yuklar tushirilgandan keyin avtotransport vositalari va konteynerlar ushbu yuklarning qoldiqlaridan tozalanadi, ushbu bandda sanab o‘tilgan ayrim yuklar tashilgandan keyin esa avtotransport vositalari va konteynerlar yuvilishi va zaruriyat bo‘lganda - bo‘lak-bo‘lak va maydalangan alebaster; asbest; barit (og‘ir shpat); mineral momiq paxta; sabzavot sharbati; gaja (gipsli ohakgil); gips; glina; alyuminiy oksidi; dolomit; grafit; vannalar uchun mineral loylar; ozuqa xamirturushlari (gidroliz sulfat); kartoshka va lavlagi qoldig‘i; kul; ohaktosh; kaolin; asbest karton; g‘isht; koagulyantlar; omixta yem; apatit konsentrati; nefelin konsentrati; bo‘yoqlar va quruq bo‘yoqlar; yormalar (iste‘mol o‘rami shikastlanganda); bo‘r, merteli; un; rangli metallar qipiqlari; chiqindilar; pegmatit; asfalt, ohaktosh, metallurgiya magneziti, shamot (olovbardosh) kukunlari; chang; sigaretlar (papiroslar) (iste‘mol o‘rami shikastlanganda); tuz; kukunsimon yuvuvchi vositalar; texnik va qurilish shishasi (singan taqdirda); rangli metallar va ularning qotishmalari qirindilari; sulfatlar, xavflilaridan tashqari, tamaki va moxorka xom ashyosi; tamaki (barglardan va ildizlardan hidlanadigan ishlov berilgan); yanchilgan va ildizlardagi talk (talkli tosh); shisha tara (singan taqdirda); torf va torf mahsulotlari; o‘g‘itlar; quritilgan go‘sht qiymasi (qoplarda); ferroqotishmalar; sement; bo‘lak-bo‘lak shamot; taxtakunjara; tez buziladigan yuklar;

hayvonlar va parrandalar dezinfeksiya qilinishi kerak.

Avtotransport vositalari va konteynerlarni tozalash, yuvish va dezinfeksiyalash majburiyati yukni oluvchilarga tegishlidir. Tashuvchi yukni oluvchi bilan kelishgan holda avtotransport vositalari va konteynerlarni yuvish va dezinfeksiyalash ishlarini bajarishni o‘z zimmasiga olishga haqlidir.

47. Tovar va notovar xususiyatga ega bo‘lgan yuklarni tashish tovar-transport yukxati bilan rasmiylashtirilishi kerak.

48. Yuk ortiladigan avtotransport vositasining tovar-transport yukxatlari va yo‘l varaqalari qat’iy hisobot beriladigan hujjatlar hisoblanadi, matbaa usulida tayyorланади, hisobga olish seriyasi va tartib raqamiga ega bo‘ladi.

49. Tovar-transport yukxati belgilangan tartibda yukni jo‘natuvchi tomonidan har bir borishga har bir yukni oluvchining nomiga alohida to‘rt nusxada tuziladi, ulardan:

birinchi nusxa yukni jo‘natuvchida qoladi va tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishni (zararni) hisobga olish uchun mo‘ljallanadi;

ikkinchi nusxa yukni oluvchiga beriladi va u tomonidan moddiy boyliklar kirim qilinishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

uchinchi va to‘rtinchi nusxalar tashuvchiga beriladi hamda tashuvchining mijoz bilan hisob-kitob qilishi va avtotransport ishini hisobga olish uchun xizmat qiladi.

50. Ko‘p miqdordagi tovar-moddiy boyliklar tashish uchun bir vaqtning o‘zida taqdim etilganda qo‘srimcha varaqani - barcha qo‘srimcha varaqalarda tovar bo‘limida ko‘rsatilgan tovar-transport yukxatining bosh varaqasi seriyasi va tartib raqami takrorlangan holda to‘rt nusxada to‘ldiriladigan tovar-transport yukxatining davomini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

51. Bir yukni jo‘natuvchidan bir yukni oluvchining manziliga aynan bir xil masofada bir necha marta borishni talab etadigan bir xildagi yuklarni tashish smena mobaynida

avtotransport vositasi tomonidan bajarilgan barcha ishga jamlangan holda bitta tovar-transport yukxati bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda oraliq borishlarni rasmiylashtirish yukni jo‘natuvchi tomonidan haydovchiga har bir alohida borishga talon berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Talon faqat berilgan kun uchun haqiqiydir va uch nusxada to‘ldiriladi, ulardan bir nusxasi yukni jo‘natuvchida, ikkinchi nusxasi - haydovchida va uchinchi nusxasi yukni oluvchida qoladi.

52. Haydovchi (yoki yukka hamrohlik qiluvchi shaxs) yukni tovar-transport yukxatida ko‘rsatilgan yukni oluvchiga topshirishi kerak.

53. Yukni yukni oluvchiga massa va o‘rinlar soni bo‘yicha topshirish yuk yukni oluvchidan qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi (tarozida tortish, o‘lchash, yuk o‘rinlarini sanab chiqish va shu kabilar).

54. Shikastlanmagan konteynerlar, sisternalarda kelgan va yukni jo‘natuvchining shikastlanmagan tamg‘alariga ega bo‘lgan yuklar yukni oluvchiga yukning massasi, holati va yuk o‘rinlari soni tekshirilmasdan beriladi.

Yuk yukni oluvchiga shikastlangan tarada, avtotransport vositasining shikastlangan kuzovida yoki yukni jo‘natuvchining shikastlangan tamg‘alari bilan kelgan taqdirda, tashuvchi tovar-transport yukxatiga muvofiq yuk o‘rinlarining massasini, sonini yoki yukning holatini tekshirishi kerak.

55. Standart og‘irlilik va mijoz tomonidan har bir yuk o‘rnida ko‘rsatilgan og‘irlilik bo‘yicha tashish uchun qabul qilingan taradagi va donali yuklar borish punktida yukni oluvchiga o‘rinlar hisobi bo‘yicha tortilmasdan, faqat shikastlangan o‘rnlardagi (agar shunday bo‘lsa) yukning og‘irligi va holatini tekshirgan holda topshiriladi.

Uyulgan va to‘kilgan holda tashiladigan, kamomad

belgilarisiz kelgan yuklar yukni oluvchiga og'irlikni tekshirmasdan topshirilishi mumkin.

56. Tashuvchining qayta yo'naltirish, yukni realizatsiya qilish yoki uni yukni jo'natuvchiga qaytarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlari mijoz tomonidan tashish shartnomasi shartlariga muvofiq to'lanadi.

57. Tashuvchiga bog'liq bo'lмаган sabablar bo'yicha yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etgan taqdirda, yuk tashuvchi tomonidan yukni jo'natuvchiga (agar tashish shartnomasida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa) qaytarilishi yoki uning yozma ko'rsatmasi bo'yicha boshqa yukni oluvchiga berilishi mumkin. Yukni oluvchi, agar u yuridik shaxs hisoblansa, tovar-transport yukxatiga imzo, shuningdek muhr bilan tasdiqlangan yuk qabul qilinishi rad etilganligi to'g'risidagi yozuvni qayd etishi kerak.

58. Yukni qayta yo'naltirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) haydovchi aloqa vositalaridan foydalangan holda tashuvchini yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etgan sana, vaqt va sabablari to'g'risida xabardor qiladi;

b) tashuvchi yozma shaklda yoxud aloqa vositalaridan foydalangan holda yukni jo'natuvchini yukni oluvchi yukni qabul qilishni rad etganligi va sabablari to'g'risida xabardor qiladi va yukni qayta yo'naltirish haqidagi ko'rsatmani so'raydi;

v) yukni jo'natuvchi yukni yetkazib berish mumkin emasligi to'g'risida xabardor qilingan paytdan boshlab 2 soat mobaynida undan qayta yo'naltirish to'g'risida bildirishnoma olinmagan taqdirda tashuvchi yozma shaklda yukni jo'natuvchini yuk qaytganligi to'g'risida xabardor qiladi va haydovchiga yukni jo'natuvchiga qaytarish to'g'risida ko'rsatma beradi;

g) yukni jo'natuvchidan tovar-transport yukxatida

ko‘rsatilgan yukni oluvchigacha yetkazib bergen holda yukni qayta yo‘naltirish to‘g‘risida ko‘rsatma olinganda tashuvchi aloqa vositalaridan foydalangan holda haydovchini qayta yo‘naltirish to‘g‘risida xabardor qiladi.

FAOLIYATNING AYRIM TURLARINI LITSENZIYALASH TO‘G‘RISIDA

- I. Umumiy qoidalar (1 - 6-moddalar)
- II. Amalga oshirish uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlari (7 - 9-moddalar)
- III. Litsenziyalar (10 - 12-moddalar)
- IV. Litsenziyalashni amalga oshirish (13 - 27-moddalar)

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi
- 2-modda. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
- 3-modda. Asosiy tushunchalar
- 4-modda. Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish
- 5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining litsenziyalash sohasidagi vakolatlari
- 6-modda. Litsenziyalovchi organlarning vakolatlari

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:
litsenziya - litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

faoliyatning litsenziyalanayotgan turi - O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

litsenziyalash - litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi; (O‘zR 07.09.2011 y. O‘RQ-292-son Qonuni tahriridagi xatboshi)

litsenziya talablari va shartlari - faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziyat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui;

litsenziyalovchi organlar - qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

litsenziya da’vogari - litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziyat - faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziysi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziya shartnomasi - faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziyatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da’vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida tuziladigan shartnoma;

litsenziyalar reyestri - berilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma’lumotlar bazalari majmui.

4-modda. Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda

litsenziyalovchi organlar amalga oshiradi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining litsenziyalash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

litsenziyalovchi organlarni va faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash tartibini belgilash, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

O‘zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalar reyestri ni yuritish tartibini belgilash;

faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash sohasidagi qonun hujjatlariga litsenziyalovchi organlarning rioya etishlarini nazorat qilish;

litsenziyalashning ayrim turlarini amalga oshirish.

6-modda. Litsenziyalovchi organlarning vakolatlari

Litsenziyalovchi organlarning vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- faoliyatning ayrim turlarini qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalash;

- qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

- litsenziya talablari va shartlariga litsenziyatlar rioya etishini nazorat qilish;

- litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish;

- litsenziyalarning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash;

- litsenziyalarning amal qilishini tugatish;

- litsenziyalarni bekor qilish;

- litsenziyalar reyestri ni yuritish.

Litsenziyalovchi organlar shu organlar litsenziyalaydigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tuzishga yoki ular faoliyatida muassislar

(qatnashchilar) sifatida ishtirok etishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

II. AMALGA OSHIRISH UCHUN LITSENZIYALAR TALAB QILINADIGAN FAOLIYAT TURLARI

7-modda. Faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini aniqlash

8-modda. Faoliyatning litsenziyalanadigan ayrim turlarini jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirishni taqiqlash

9-modda. Davlat unitar korxonalari va muassasalari tomonidan faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tashkil etilgan davlat unitar korxonalari va muassasalari, basharti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarida faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish nazarda tutilgan bo‘lsa, faoliyatning mazkur turlarini tegishli litsenziyani olmasdan amalga oshirishga haqlidir. Mazkur qoida ko‘rsatilgan korxonalar va muassasalarni litsenziya talablari va shartlarini, shuningdek faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish bilan bog‘liq, qonun hujjatlariga muvofiq qo‘yiladigan boshqa talablarni bajarishdan ozod etmaydi.

III. LITSENZIYALAR

10-modda. Litsenziyalarning turlari

11-modda. Litsenziyaning amal qilishi

12-modda. Litsenziyaning amal qilish muddati

Litsenziyaning amal qilish muddati tugagach, u litsenziyatning arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddati

tugashidan kamida ikki oy oldin berilishi lozim. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziyani beruvchi uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

IV. LITSENZIYALASHNI AMALGA OSHIRISH

13-modda. Litsenziya talablari va shartlari

14-modda. Litsenziya olish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlar

15-modda. Litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqqanlik uchun yig‘im

16-modda. Litsenziya berish to‘g‘risida qaror qabul qilish

17-modda. Litsenziya berishni rad etish

18-modda. Litsenziyalarni rasmiylashtirish

19-modda. Litsenziya shartnomasi

20-modda. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish

21-modda. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish

22-modda. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish

23-modda. Litsenziyaning amal qilishini tugatish

24-modda. Litsenziyani bekor qilish

25-modda. Litsenziyalarning reyestrlari

26-modda. Litsenziya bergenlik uchun davlat boji

27-modda. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Hisobot yozish.

11-LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi. Avtotransport korxonasida boshqarish tizimi tarkiblarini o’rganish

1. Ishdan maqsad: Talabalarga avtotransport korxonasing vazifalarini hamda ushbu faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida tuzilgan tashkiliy tuzilmasi va boshqarish tizimini o’rgatish.

2. Ishni bajarish tartibi.

Texnik tizimlarning ishlab chiqarish tarkiblari va ularga ta'sir etuvchi omillar. MTX ning tashkiliy ICh tarkibi deganda – ICh bo'linmalarining soni, o'lchami, funksional vazifasi, o'zaro aloqasi va aloqa ko'rinishlari va uslublvari majmuasining tartibiga keltirilgan tarkibi tushuniladi.

Boshqaruv tizimining tarkibi deganda- ICh bo'linmalarini boshqaruvchilik qilayotgan zvenolarning tarkibi va ularning o'zaro bo'ysunuvchanligi tushuniladi.

Oldingi ma'ruzalarda aytilganidek MTX ma'lum IChTB va resurslarga ega bo'lib, ularning har birini kelib chiqish manbasi va tuzilish usullari mavjuddir va ular MTX samaradorligida aks etadi. Ya'ni har bir biri vazifasi, tarkibi va mos ravishda boshqaruvga ega bo'lgan o'zining kichik tizimlarini tashkil qiladi.


ATK MTX tashkiliy - ishlab chiqarish tarkibining umumlashtirilgan tuzilishi 11.1-rasmda ko'rsatilgan.

Boshqaruvning tashkiliy-ishlab chiqarish tarkibini tuzishda eng kelajaklisi bo'lib maqsadli dastur usuli hisoblanadi. Boshqarishdan farqi shundaki, bunda tizimni uning oldiga qo'yilgan maqsad sari eng samarali yo'l bilan olib chiqishga qaratiladi.

Shunday qilib MTXning tashkiliy ICh tarkibini va uni boshqarish tizimini ishlab chiqishda (yaratishda) tizimning maqsad va vazifalarini qo'yib olish bu usulning asosiy talablaridan hisoblanadi. Bunda tarkibning mustahhkamligi va haayotiyligi birinchi o'rinda tizim oldiga qo'yilagan vazifa tarkibidagi o'zidan yuqori (ATP, ATO, TPOAT) darajadagi tuzilishga, boshqa tomondan o'zining rivojlanishi va faoliyati talablariga to'g'ri kelishiga bog'liqdir.

Avval aytilgandek, ATK MTX ning maqsadi harakatdagi qo'shilmalarining texnik tayyorgarligini, berilgan muddatlarda va nomenklaturasi bo'yicha ta'minlashdir. Bu maqsadga erishish

uchun MTX bir qator masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Buning uchun u ICh korxonasi tuzadi. Unda avtomobil larda TXK va JT uchun kerak bo'ladigan tashkiliy ishlab chiqarish tarkibini tuzadi. (rasmga qarang).



Rasm 11.1 ATK MTX tashkiliy-ishlab chiqarish tarkibining umumlashgan tuzilish

Konkret ATK uchun MTX tashkiliy Ich tarkibini tuzish uchun ichki va tashqi omillar hisobga olinadi.

Asosiy ichki omillar:

- texnologik qo'shish mumkin bo'lgan harakatdagi qo'shilmalar narxini soni va o'lchamlari;

- Ich ning ishlash tartibi;

harakatdagi qo'shilmalarning ekspluatatsiya jadalligi;

- IchTB ning rivojlanganlik darajasi;

- Ich zonalarining joylashish xarakteri va ularning maydon jihatidan ajralganligi;

- Ich xodimlarining soni;

Bo'linmalarning maxsuslashtirish mumkinligi va ular bilan bir necha turdag'i ishlarni bajarish mumkinligi.

Asosiy tashqi omillarga:

yuqori – pog'onadagi tizim maqsadga bo'yсинувчанлигидан келиб чиқиб quyidagilar kiradi:

- Ishlarni markazlashtirish;

- Ich ni mujassamlash (konsentratsiya);

- Ich ni maxsuslashtirish;

- Ich ni kooperatsiyalash.

Yuqorida keltirilgan tashqi faktorlarning mavjudligi AT ning regional tizimlarda Ich jadallashtirishga qaratilgan, mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va raqobatlashtirishga qaratilgan, texnik siyosatini olib borishga mo'ljallangan.

3.2. Muhandis – texnik xizmatining tarkiblari, vazifalari. ATK texnik xizmati quydag'i tarkiblardan iboratdir: bosh mexanik bo'limi, texnik nazorat bo'limi, texnik bo'lim, material texnik ta'minoti bo'limi va boshqalar.

Avtotransport birlashmalarida bosh mexanik xizmati ishlab chiqarishni rivojlantirish, bino va inshoatlarni, energokuchlangan, sanitar texnik va texnologik jihozlarni texnik soz holda ushlab turish bilan bog'liq funksiyalarni bajaradi.

Bosh mexanik xizmatiga quyidagilar yuklanadi:

- ishlab chiqarish texnika bazasi elementlarini texnik

holatini nazorat etish;

- ishlab chiqarish texnika bazasini elementlarini holatini va mavjudligini hisobga olish;

- elementlarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

- yangi texnikani tadbiq etish;

- nostandard jihozlarni va moslamalarni tayyorlash;

- texnologik jihozlarni o'rnatish, ko'chirish, sozlash;

- qurilish ishlari olib borish


Bosh mexanik xizmati quyidagi tarkibdan tuzilgan:

- texnologik jihozlarni markazlashgan holda ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish ustaxonasi;

- nostandard jihozlar tayyoyorlash va yangi texnikani joriy etish ustaxonasi;

- texnik vositalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish ustaxonasi;

- bino va inshoatlarni ta'mirlash, qayta qurish va qurish



Rasm 11.2. Texnik nazorat xizmatini prinsipial sxemasi

brigadasi.

Bulardan tashqari bosh mexanik xizmatiga energiya kuchlari, sanitar-texnika jihozlari, boshqarish vositalarini, garaj jihozlarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish xodimlari ham kiradi.

Agarda funksiyalar bo'yicha bajariladigan ishlar hajmi yetarli bo'lmasa u holda kompleks bo'linmalar tashkil etiladi.

Raxbariyat guruhlari xizmatini hamma yo'nalishlari bo'yicha faoliyatini nazorat qilish, rejalashtirish, taxlil etishni amalga oshiradi.

Texnik nazorat xizmati harakat vositalarini texnik holatini ATK da nazoratini tashkil etadi: ishlab chiqarishga kelgan avtomobillarni agregatlarini, uzellarini sifatini nazorat qiladi; texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda bajariladigan ishlarni sifatini nazorat etadi; ATK ga kelayotgan materiallar sifatini nazorat etadi; texnologik jihozlarni, asbob-uskunalarini holatini nazorat qiladi; texnik nazorat xizmati ishini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi. Texnik nazorat xizmatining prinsipial chizmasi 3.2.-rasmda keltirilgan.

Nazorat xizmatiga rahbarlik qiladigan boshliq to'g'ridan-to'g'ri birlashma boshlig'iga bo'yasinadi.

Texnik nazorat xizmati boshlig'i qo'l ostida texnik nazorat ustasi, texnik nazorat mexaniklari ishlaydi.

Nazorat bo'yicha ish hajmlari yetarli bo'limganda ba'zi funksiyalarni birlashtiriladi.

Nazorat mexaniklari markazlashgan ishlab chiqarishga kelgan harakat vositalarini qabul qiladilar;

Kapital ta'mirlangan avtomobillarni, agregatlarni sifatini nazorat qiladilar;

Filiallarda nazorat mexanikalari TX va T ishlarini sifatini nazorat qiladilar.

Texnik bo'lim ishlab chiqarish jarayonini yangi texnika

va texnologiyalarni joriy etish, mehnatni ilmiy tashkil etish reja va tadbirlarni ishlab chiqadi, bajarilshini tashkil va nazorat qiladi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi tadbirlarini ishlab chiqadi va o'tkazadi, xodilmarni tayyorlash, ishchilar va muxandis texnik xodimlarni malakasini oshirish bo'yicha o'qishlar tashkil qiladi, nostonart texnologik jihozlarni loyihalash ishlarini, ishlab chiqarishni takomillashtirish va jihozlarni texnik qayta qurollanish ishlarini amalga oshiradi.

Texnik bo'lim boshlig'iga ixtirochi muhandislar, konsturktorlar, hisobot texnikalari va h.k. bo'ysunadi.

Material – texnik ta'minoti xizmati. Material texnik ta'minoti (MTT) xizmati korxonalarni kerakli ehtiyyot qismlar, agregatlar, yonilg'i-moy maxsulotlari bilan ta'minlaydi, kerakli zahirasini me'yorida ushlab turadi va saqlashni, tarqatishni tashkil etadi.

12-LABORATORIYA ISHI

Ishning nomi. Avtotransport korxonasi hodimlarini tayyorlash tizimi va ularni baholash turlarini o'rganish.

1. Ishdan maqsad: Talabalarga avtotransport korxonasining

2. Ishni bajarish tartibi.

Texnik xizmat xodimlari va ularning tasnifi. Umuman xodim (kadr) deganda turli sohadagi fan va texnika mutaxassislari, shu jumladan, bajarayotgan ishi maxsus kasb tayyorgarligini talab qiladigan malakali ishchilar tushuniladi. Malakali ishchilar-bu odadta o'rta maxsus o'quv yurtlarini, huyenar-texnika o'quv yurtlarini, maxsus kollejlarni bitirgan yoshlardir.

Boshqaruv xodimlari deganda kasb faoliyati to'la ishlab chiqarish boshqaruvi vazifasini bajarish bilan bog'liq xizmatchilar tushuniladi.

Boshqaruv kadrlari tushunchasi bilan quyidagi ikkita tushuncha:

xodimlar siyosati va xodimlar bilan ishlash bog'liqdir; xodimlar siyosati – bu uzoq davrga mo'ljallangan bo'lib kerakli ish bilarmonlik, kasb va shaxsiyat sifatiga ega yuqori malakali boshqaruv xodimlar taraqqiyoti yo'nalishi tushuniladi. Xodimlar siyosatini maqsadi, korxonada, firmada xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni uzoq muddatli dasturni ishlab chiqarishdan iboratdir.

Xodimlar ishining taktikasi deb xodimlar bilan bo'ladigan ishga aytildi. Bu xodimlarni to'g'ri tanlash, joy-joyiga qo'yish o'qitish, ta'lim berish, boshqaruv odimlarini ishlatish va qayta tayyorlash demakdir.

Xodimlar ishining muhima jihatiboshqaruv xldimlarini faoliyatini baholashdir.

Xodimlarni tayyorlash. Avtomobil transportini talab etilayotgan malakada va zarur miqdorda mutaxassislar va ommaviy kasb kadrlari bilan ta'minlash avtotransport kompleksi mutaxassislarining malakasini oshirish, qayta o'qitish amaldagi kasb ta'limi tizimi orqali amalga oshiriladi.

Avtomobil sohasining asosiy mutaxssislari-ta'mirlash ishchilari va haydovchi *kadrlarini tayyorlash* avtomobil transportining o'quv-kurs kombinatlari va tarmoq kasbiy bilim yurtlarida amalga oshiradilar. Avtotransport korxonalarida qisman o'qitish va attestatsiya o'tkaziladi. Oliy va o'rta maxsus ma'xlumotli mutaxassislarni tegishli ravishda institutlar, universitetlar, akademiyalar, texnikumlar va kollejlar tayyorlaydi. Avtotransport sohasi bo'yicha oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotiga ega bo'limgan, lekin avtotransport faoliyatiga ma'sul shaxs va tadbirkorlarni oliy va o'rta va maxsus bilim yurtlari turiga litsenziya va akkreditatsiyasiga muvofiq o'qitadilar.

Kasbiy faoliyatning yangi ko'rinishini bajarish uchun zarur bo'lgan ayrim fanlarni, fan bo'limlarini, texnika va texnologiyani o'rganishni ko'zda tutadigan *qayta o'qitish* ta'lim dasturlari bo'yicha qo'shimcha bilim, mahorat va ko'nikma olish maqsadida o'tkaziladi. qayta o'qitishni oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari amalga oshiradilar. Kasbiy qayta o'qitish yo'nalishi buyurtmachi (korxona) tomonidan malaka oshirish bilim muassasasi bilan kelishilgan holda aniqlanadi, o'qitish o'tkazilganligi tegishli ravishda davlatning namunali diplomi yoki guvohnomasi bilan tasdiqlanadi.

Malaka oshirish mutaxassislarga qo'yiladigan talablarga muvofiq nazariy va amaliy bilimlarni yangilaydi. Malaka oshirishni, mutaxssislar tayerlashni asosiy yo'nalishlari bo'yicha litsenziyaga muvofiq o'zining tarkibida institutlar (fakultetlar) i va malaka oshirish kurslari bo'lgan. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari o'tkazadilar. O'qitish buyurtmachi va bilim yurti tomonidan belgilangan dasturloar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tajriba ortirish (stajirovka) nazariy tayergarlik natijasida olingen kasbiy bilimlar, mahoratlар va ko'nikmalarni amalda mustahkamlash va shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi va tajriba korxonalarda, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida, bilim yurtlarida o'tkaziladi. Dastur va tajriba orttirish muddatlari yuborayotgan va qabul qilayotgan tashkilotlar tomonidan belgilanadi.

Avtomobil transporti uchun mutaxassislar tayyorlash bilan 50 ga yaqin OO'Yu va 200 dan ortiq texnikum va kollejlar shug'ullanadilar. Haydovchilar va ta'mirlash ishchilari 4000 dan ortiq o'quv-kurs kombinatlari va avtomaktablarda. Bilim yurtlari har yili avtotransport sohasiining 4,5–5 ming oliy ma'lumotli va 10 mingdan ortiq o'rta texnik ma'lumotli mutaxassislarini chiqaradilar. Rahbar shaxs sifatini tarkib

modeli 5.2. rasmda keltirilgan.

ADABIYOTLAR

1. В.С Клейнер, В.В. Тарасов «Техническое обслуживание и ремонт автомобилей. Организация и управление. М; «Транспорт», 1986 г. 237 стр.
2. «Организация и управление производством технического обслуживания и ремонта автотранспортных средств. Яговкин А.И. и др. Красноярск 1989 г. 287 стр.
3. Кузнецов Э.С. Управление технической эксплуатации автомобилей. М.: Транспорт, 1990 г.
4. Кузнецов Э.С. Управление техническими системами. - М.: МАДИ 2001 г.
5. “O’zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakati tarkibiga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash to’g’risidagi Nizom” Toshkent, 1999 y. – 212 b.
6. Borovskiy Yu.I. va boshqalar. Avtombillarning tuzulishi, TXK va Ta’mirlash. –Toshkent, Mehnat 2001 y, -573 b.
8. Техническая эксплуатация автомобилей. Учебник для ВУЗов. под ред Э.С.Кузнецова –М.: Наука 2004 г
9. Avtombillar servisi axborotnomasi. Sidiqnazaorov Q.M., Taxriri ostida Toshkent. “Voris-Nashriyoti”, 2011 y. – 496 b.

Internet va Ziyo-Net saytlari.

1. [htt'://www.uzsci.net](http://www.uzsci.net)
2. [htt'://www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)
3. [htt'://www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)
4. [htt'://www.ru.Weliko'edia.org/wiki](http://www.ru.Weliko'edia.org/wiki)
5. [htt'://www.techno.edu.ru/db/sect/111](http://www.techno.edu.ru/db/sect/111)

